



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

8-iyun

payshanba

№ 23 (4613)

Postda На посту

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

OILAGA QUVONCH QAYTDI



Yo'qolib
qolgan qizaloq
Toshkent shahar
IIBB YHXB YPX
brigadasi 3-batalyoni
4-safarbarlik guruhi
YPX katta inspektori,
leytenant Nodirbek
Abduvohidov va
YPX inspektori,
serjant Sherzod
Anvarovlarning
hushyorligi sababli
oilasi bag'riga
qaytdi.

➔ 11

ORAMIZDAGI
ODAMLAR

SAODAT KALITI



➔ 5

XIZMATLARDA



ENG YAQIN DO'ST
KO'MAGIDA

➔ 7

ТАКТИЧЕСКИЕ
УЧЕНИЯ

ДЕМОНСТРИРУЯ БОЕВУЮ ВЫУЧКУ



➔ 15



Qaror va ijro

MUHIM VAZIFALAR BELGILAB OLINDI



Ma'lumki, Milliy gvardiya tarkibida bo'lgan «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati Prezidentimizning joriy yil 20-yanvardagi tegishli qaroriga muvofiq Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. Bu, o'z navbatida, Jamiyat faoliyati bilan bog'liq ayrim tashkiliy hamda huquqiy masalalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu sababli joriy yil 1-iyun kuni «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyatining XVII Konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, «Dinamo» sport jamiyati bundan 100 yil avval, 1923-yil 18-aprelda tashkil etilgan.

Jamiyatning asosiy maqsadi xodimlarni tezkor vazifalarni bajarishda jismonan chiniqtirish uchun sportning o'q otish, boks, kurash, og'ir atletika, qilichbozlik turlari bilan shug'ullantirish hisoblangan.

O'zbekistonda «Dinamo» jamiyati kengashiga 1934-yil 18-aprelda asos solinib, 1992-yilda «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati sifatida qayta tashkil etilgan.





IIV Akademiyasida bo'lib o'tgan mazkur anjumanda «Dinamo» JTSJning 2018–2022-yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobot tinglandi va baholandi. Shuningdek, konferensiyada Jamiyatga a'zo bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va harbiy xizmatchilaridan iborat 67 nafar kishilik Kengash, 11 nafar a'zodan iborat doimiy Prezidium saylandi.

Anjumanda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov Jamiyat raisi, Davlat xavfsizlik xizmati raisining birinchi o'rinbosari, general-mayor Botir Tursunov jamiyat raisining birinchi o'rinbosari vazifasini bajaruvchi, Ichki ishlar vaziri

o'rinbosari, general-mayor Azizbek Ikramov, polkovnik Erkin Qayumov, podpolkovnik Oydin Rahimov rais o'rinbosarlari etib saylandi.

Shu bilan birga, «Dinamo» JTSJ nazorat-taftish komissiyasi a'zolari saylandi. Jamiyatning Ustaviga, «Jismoniy tarbiya jamoasi to'g'risidagi Nizom»ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ko'rib chiqilib, tasdiqlandi.

Konferensiyada Jamiyatga a'zo bo'lish istagini bildirgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi jamoasi «Dinamo» jamiyatiga qabul qilindi. Bundan tashqari, 2023–2026-yillarga mo'ljallangan alohida Dastur loyihasi

ishlab chiqilib, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilganligi ishtirokchilarga ma'lum qilindi.

Mazkur dasturda Jamiyatning markaziy hamda hududiy bo'linmalari uchun yer maydonlari ajratish, binolar qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, shuningdek yangi sport inshootlari barpo etish nazarda tutilgan. So'zga chiqqanlar Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxsiy tarkibining jismonan chiniquqan va baquvvat bo'lishi muvaffaqiyatli xizmat garovi ekanligini ta'kidlashdi.

Konferensiya yakunida hisobot davrida erishilgan yutuqlar ishtirokchilar tomonidan e'tirof etildi.

Chindan ham, bugun mamlakatimizni dunyoga tanitishda sportning o'rni beqiyos. Jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, madhiyamiz



yangrashiga sababchi bo'lgan sportchilar orasida «Dinamo» jamiyati sport majmualarida shug'ullangan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va harbiy xizmatchilari ham borligi quvonarli, albatta.

Konferensiyada «Dinamo» jamiyatining huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxsiy tarkibi o'rtasida sportni rivojlantirish va mamlakatimizning barcha hududlarida Jamiyatga qarashli majmualarda har xil sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish borasidagi muhim vazifalar belgilab olindi.

Abdurasul AMINOV,
kapitan.



Фотоэтнод

ЯРКИЙ ПРАЗДНИК – САБАНТУЙ

В Центральном парке им. Мирзо-Улугбека города Ташкента состоялся яркий татаро-башкирский праздник – Сабантуй-2023. В нем как в зеркале отразились народные традиции и обычаи. В программе были выступления мастеров искусств Узбекистана, Татарстана, Башкортостана, самодеятельных исполнителей, выставки, спортивные состязания для взрослых и детей.

Чтобы ничто не омрачило настроение гостей, общественный порядок о б е с п е ч и в а л и сотрудники органов внутренних дел и Национальной гвардии.

Радик ТУМΠΑРОВ,
корреспондент
«На посту».



На снимках: сотрудники подразделений УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района рядовые Махмуд Алимов и Икром Мирзаев с гостями праздника.



Наш девиз – честность

НЕ ПЫТАЙТЕСЬ
ДАТЬ ВЗЯТКУ!

В системе органов внутренних дел осуществляются целенаправленные меры по воспитанию сотрудников в духе высокой ответственности. Стражи правопорядка, следуя Кодексу профессиональной культуры и служебной дисциплины, искренне осознавая свой долг перед народом, ведут непримиримую борьбу с любыми проявлениями злоупотреблений и коррупции.

Житель махалли Чинобод Дустликского района Н. М. путем мошенничества присвоил крупную сумму денег жителя махалли Галаба Мирзачульского района К. К. На основании заявления потерпевшего дознаватель следственной группы при ОВД Мирзачульского района лейтенант Отабек Тоиров начал предварительное следствие. Подозреваемый, желая избежать наказания, предложил сотруднику взятку в размере 300 долларов США. Дознаватель разъяснил подозреваемому, что дача взятки – противозаконно и карается законом, но Н. М. настаивал на своем. Лейтенант О. Тоиров рапортом доложил о данном факте руководству УВД Джизакской области. Сотрудниками отдела по Джизакской области Главного управления собственной безопасности МВД и прокуратуры взяткодатель задержан в момент передачи денег.

Инспектором ДПС первой мобильной группы батальона ДПС УБДД СОБ УВД Джизакской области рядовым Азимжоном Ортиковым был остановлен автомобиль марки «Кобальт»,

за рулем которого находился житель сельского схода граждан «Кумдарья» Чиракчинского района Кашкадарьинской области Ж. М. Когда страж порядка попросил водителя предъявить документы, Ж. М. попытался скрыться на своей машине. Сотруднику удалось настигнуть беглеца. Как выяснилось, причиной, побудившей Ж. М. к бегству, явилось наличие в багажнике автомобиля около 400 килограммов хлопкового волокна. Поняв, что дело осложняется, молодой человек предложил инспектору взятку в размере 1,5 млн сумов... Результат – он был задержан оперативными сотрудниками при передаче денег.

Честная служба – путь к обретению доверия соотечественников.

Отметим, что за истекший период текущего года дела закончились плохо для пяти лиц, пытавшихся разрешить возникшую у них проблему «денежным путем».

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
корреспондент «Postda»,
Джизакская область.

Третий сектор

Своевременное разрешение вопросов, волнующих соотечественников, действенная помощь тем, кто в ней нуждается, – одна из основных задач третьего сектора.

В эти дни в третьем секторе Кошрабадского района, который возглавляет подполковник Бунёд Журакулов, проводится очередной подворовой обход, посещаются малообеспеченные семьи и люди с инвалидностью.

Сектор включает в себя 11 махаллей, где проживает свыше 7 800 семей. Здесь функционирует 551 хозяйствующий субъект – 360 юридических лиц и 191 индивидуальный предприниматель.

С начала года члены рабочей группы сектора помогли гражданам, включенным в списки «железной», «женской» и «молодежной» тетрадей, в решении самых разных проблем. Деятельность в данном направлении продолжается, причем на системной основе.



В «железной тетради» в начале года состояло 865 семей. Основной их части оказана помощь в виде материальных выплат, трудоустройства, содействия в организации самозанятости и др., в результате чего многие семьи удалось вывести из списка нуждающихся.

Изучаются проблемы женщин и молодежи. На территории сектора проживает свыше 5 тысяч женщин старше 30 лет, 104 были включены в «женскую» тетрадь. При непосредственном участии органов самоуправления, спонсоров каждой из них оказана необходимая помощь.



На снимке: начальник Кошрабадского РОВД подполковник Бунёд Журакулов (в центре) и заместитель начальника РОВД по духовно-просветительской работе майор Дилбек Носиров беседуют с жителями района.

АДРЕСНАЯ ПОДДЕРЖКА

В центре внимания работа с неорганизованной молодежью. Основная часть лиц, состоящих в «молодежной» тетради, трудоустроена, около 70 человек получили льготные кредиты, более 50 выделены земельные участки для сельскохозяйственной деятельности, 89 занялись тепличным бизнесом.

– Рабочая группа третьего сектора готова оказать поддержку тем, кто столкнулся со сложной жизненной ситуацией, – говорит подполковник Бунёд Журакулов. – Каждое обращение берется на контроль, не остается без внимания.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту»,
Самаркандская область.

Орамуздаги одамлар

САОДАТ КАЛИТИ

Ургутлик Мавлуда Ҳамдамова хонадонидан йил – ўн икки ой хорижий ҳамда маҳаллий сайёҳлар аримайди. Чунки хунарманд опа ўз уйида миллий хунармандчилик устахонаси ва музей ташкил этган. Унинг мўъжазгина ҳовлиси тасаввуримизда миллий анъана ва қадриятларимиз, урф-одатларимиз билан боғлиқ ҳикояларнинг бир лавҳаси гўё. Бу ерда Мавлуда опа бошчилигидаги йигирма-ўттиз чоғли хотин-қизлар доим каштачилик билан машғул. Дид билан тикилган шоҳисўзана, зардевор, рўйжой, кимхоб тўнлар, келинчакларга аталган бир-биридан бежирим либослар, улардаги ранг-баранг нақшлар, меҳр билан қадалган ҳар бир тош тикувчиларнинг моҳир қўллари ва мўъжизакор игнаси билан нозик қалбларнинг аксига айланганига шубҳа қилмайсиз.

– Узоқ йиллар мактабда бошланғич синф ўқувчиларига сабоқ бердим, – дейди Мавлуда Ҳамдамова. – Шу билан бирга, онамерос хунаримни давом эттирдим. Пенсияга чиққанимдан кейин эса оилавий тадбиркорлик фаолиятимни кенгайтирдим. Бунда турмуш ўртоғим, фарзандларим менга суянч бўлишди.

Меҳр-оқибат, аҳил-иноқлик устувор бўлган оилада ҳамisha хузуру-ҳаловат, баракка бўлади. Эгамберди Исаев ва Мавлуда Ҳамдамованинг оила кўрғонида ҳам шундай инсоний фазилатлар қадр топган. Уларнинг фарзандлари жамиятда ўз ўрнига эга. Оиланинг тўнғич ўғли Фолибжон шифокор, Фуломжон туризм соҳасини эгаллаган бўлса, Холмуроджон тадбиркорлик қилади. Айтганча, улар танлаган соҳаларида зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш баробарида, ёғоч ўймакорлиги, бешик ясаш билан машғул. Оиланинг ягона қизи Рушана ва келинлар Феруза, Райҳона, Элмира каштачилик хунарини пухта ўзлаштирган.

– Маҳалламиздаги 1387 та оилада 5806 нафар аҳоли истиқомат қилади, – дейди «Хўжагузар» МФЙ раиси Улаш Шодиев. – Мавлуда Ҳамдамова маҳалламиздаги беш-



ликда хотин-қизлар фаоли сифатида ҳам жамоамизда ўз ўрнига эга. Унинг ибратли оиласига, миллий хунармандчилик мактабига маҳалла-кўй ҳавасманд. Опа ниҳоятда меҳнатқаш, мулоҳазакор, тадбирли аёллардан. Иш жараёнида бирор муаммога ечим топишга келганида, доим кутилмаган ташаббус билан жонимизга оро киради. Ҳозир ўттизга яқин хотин-қизлар банд-

лигини таъминлаган. Шунингдек, у устоз-шогирд анъанасига содиқликда 135 ва 69-умумтаълим мактаблари ўқувчи-қизларига бевосита мактабда ва уйида ўз хунарини ўргатади. Айниқса, кам таъминланган оилалардаги хотин-қизларни қаноти остига олиб, иш беради. Хусния Ҳақбердиева, Дилдора Тошева, Дилбар Абдуллаевалар шулар жумласидан.

– Мавлуда опа ёшлигимдан тикувчилик сирларини ўргатган устозим, – дейди Дилбар Абдуллаева. – Ҳозир оилалиман, икки нафар фарзандим бор. Менга маҳалладан

– Мавлуда Ҳамдамованинг уй музейига Туркия, Ҳиндистон, Германия, АҚШ, Япония, Франция каби қатор давлатлардан кўплаб сайёҳлар келади, – дейди маҳалла профилактика инспектори, капитан Жавлон Бекмуродов. – Меҳмонлар ва маҳаллий аҳоли ўртасида дўстона мулоқот ўрнатишда хунарманд опанинг кўнгли очиклиги, бағрикенглиги ва жонқуярлигини алоҳида таъкидлаб, тинчлик-осойишталикка мен билан бирдек қайғуради, деган бўлардим.

Ҳа, халқимиз тилида «Кўнгли очикнинг йўли очик» нақли бежиз яралмаган. Қаҳрамонимиз ҳам кўнглига туккан эзгу мақсадларининг хайрли рўёбидан мамнунлик туяди. Юртимиз бўйлаб ўтказиладиган миллий кўрғазмаларнинг фаол иштирокчиси. Қолаверса, «Арт фолк», «Атлас байрами», «Ипак ва зираворлар» сингари қатор кўрғазма ва фестивалларда бетакрор ишлари алоҳида эътироф этилиб, рағбат топган хунарманд. Дарвоқе, Мавлуда Ҳамдамова миллий каштачилик йўналишидаги меҳнатлари учун 2019 йилда «Шухрат» медали, 2022 йилда «Мўътабар аёл» кўкрак нишони соҳибаси бўлган.

Қувонарлиси, юртимизда инсон қадри учун тамойили асосида амалга оширилаётган эзгу мақсадларга ҳамоҳанг равишда ўз маҳалласидаги хотин-қизларни хунарли қилиш баробарида, миллий хунармандчилигимиз ривожига катта ҳисса қўшаётган қаҳрамонимиз куни кеча ИИВ раҳбарияти томонидан ташаккурнома ва қимматбаҳо совға билан тақдирланди.

– Аёл бахти, унинг саодати нимада, деган саволни ўзимга ўзим кўп бераман, – дейди қаҳрамонимиз. – Агар у мақсадларини тўғри қўя олса, бахтини ўз қўллари билан яратади. Биласизми, момоларимиздан мерос хунарни давом эттираётганимдан ва дунёга танитишга ҳисса қўшаётганимдан кўнглим ёришади. Шу боис эшигимдан музей ва ишларимиз билан танишиш мақсадида келган сайёҳлар, «Хунарли бўлсин» дея фарзандини етаклаб келган оналарни кучоқ очиб кутиб оламан. Бугун илк бор жажжи қўллариغا игна тутган қизалоқларга бор меҳрим билан хунаримни ўргатаман, улар менинг эртанги изларимдир, бунга ишончим комил.

Ҳаёт инсонни бахт ва саодатга элтувчи ақидалар билан жўшқин давом этади. Уй-мақсадлари, режалари улкан Мавлуда Ҳамдамова эса бу ақиданинг мағзини чақиб улгурганлардан. Шу боис унинг тимсолида хунардан зар ундирган ўзбек аёлини кўрдик.

Гулноза ТУРГУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.

Самарқанд вилояти.



■ г. Ташкент

НА СТРАЖЕ ПРАВОПОРЯДКА



**Дилором
МИРХАЛИКОВА,
старший инспектор-
психолог
ОПП УКД ОВД
Мирзо-Улугбекского
района,
подполковник:**

– После окончания Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами в 1997 году 12 лет работала учителем в общеобразовательной школе № 258 Юнусабадского района. В 2003 году начала службу в органах внутренних дел.

В закрепленных за мной общеобразовательных школах №120, №279, №256 Мирзо-Улугбекского района выявляю учащихся, которые регулярно без причины не посещают занятия, проявляют девиантное поведение, провожу работу с ними, а также с их родителями. Во взаимодействии с педагогами образовательных учреждений осуществляем деятельность, направленную на предупреждение правонарушений среди подростков и молодежи. При этом обязательно учитываем возрастные особенности ребят. Цель – оградить их от деструктивного влияния, направить на правильный путь.



**Лолахон
ТУРСУНАЛИЕВА,
старший инспектор
по вопросам женщин
ОПП ОВД №2 УКД ОВД
Мирзо-Улугбекского
района, майор:**

– Начала служебную деятельность в 2012 году с должности психолога Управления охраны ГУВД города Ташкента (ныне Управление охраны Национальной гвардии). Служила дознавателем, следователем в СО при УВД Сурхандарьинской области. С мая 2019 года по настоящее время являюсь старшим инспектором по вопросам женщин отдела профилактики правонарушений ОВД №2 УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района города Ташкента.

Нашей задачей является обеспечение прав женщин, защита от любых форм притеснения и насилия, предупреждение совершения со стороны женщин противоправных деяний. В центре внимания вопросы оказания женщинам, оказавшимся в сложной жизненной ситуации, социальной помощи, материальной и моральной поддержки. Задачи непростые, требуют максимальной ответственности, оперативного реагирования. Горжусь своей службой, готова и далее стоять на страже прав соотечественниц.



**Шерзод БАРАТОВ,
начальник ОПП ОВД
№ 2 УКД ОВД
Мирзо-Улугбекского
района, майор:**

– В органах внутренних дел начал служить рядовым сотрудником отдела охраны ОВД Зааминского района Джизакской области. В 2014 году, после присвоения звания лейтенанта, был назначен заместителем командира межрайонного отдела охраны, а затем командиром отдела охраны ОВД Зааминского района. В 2016 году переведен в службу профилактики правонарушений. В 2021 году работал в УКД ОВД Учтепинского района города Ташкента, затем осуществлял деятельность в качестве старшего инспектора профилактики ОВД №2 УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района. С нынешнего года возглавляю в ОВД №2 отдел профилактики правонарушений.

Ежедневно инспекторам профилактики напоминает, что об органах внутренних дел граждане судят прежде всего по их работе, а потому к ним предъявляются повышенные требования. Инспектор профилактики должен обладать выдержкой, способностью урегулировать конфликты, быть одновременно и сотрудником органов правопорядка, и воспитателем, мнение которого значимо.



**Акбар РАХМОНОВ,
инспектор
профилактики
ОПП ОВД №2 УКД ОВД
Мирзо-Улугбекского
района, капитан:**

– Служебную деятельность начал в 2016 году инспектором профилактики махалли Отчопар-1. В 2019 году назначен инспектором профилактики махалли имени Ахмада Югнаки Мирзо-Улугбекского района, где на сегодняшний день проживает около 4 400 человек.

Четкое знание законодательства, преданность профессии, трудолюбие – важнейшие качества, которыми должны обладать сотрудники органов внутренних дел. На вверенной территории в тесном контакте с сотрудниками иных отраслевых служб, во взаимодействии с органами самоуправления граждан осуществляем деятельность по профилактике правонарушений. Среди населения, особенно молодежи, ведется разъяснительная работа. На контроле лица, склонные к совершению правонарушений, ранее судимые, состоящие на учете. В центре внимания вопросы улаживания семейных конфликтов, недопущение насилия. К данной деятельности привлекаются аксакалы махаллей, которые могут дать конфликтующим сторонам мудрый совет.



✓ **Xizmatlarda**

ENG YAQIN DO'ST KO'MAGIDA



Namangan shahriga borsangiz, ko'chalarda otda savlat to'kib ke-
layotgan osoyishtalik posbonlariga ko'zingiz tushadi. Otlig guruhlar
ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalarining tarkibiy
tuzilmasi bo'lib, asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini
ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ommaviy tadbirlar chog'ida
yuqori harakatchanlik hamda mobil to'siqlar va halqalar tashkil etish
bo'yicha choralarni amalga oshirishdan iborat.

Viloyat IIB JTSB PPX batalyoni
Ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy
tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni
ta'minlash otryadi otlig guruhi viloyat
IIB rahbariyati tashabbusi bilan
2012-yil noyabrda tuzilgan. Naman-
gan shahri hududidan 0,35 ga yer
maydoni ajratilib, bu joyda hashar
yo'li bilan 30 bosh ot uchun xizmat
otlari pitomnigi qurilgan.

Ayni paytda otlig guruhda 13 na-
far xodim faoliyat olib boryapti. Xizmat
otlari pitomnigida guruh tasarrufidagi
20 bosh xizmat oti mavjud.

– Joriy yilning o'tgan davrida
viloyat hududida o'tkazilgan ommaviy
tadbirlarda uch, madaniy, sport tad-
birlarida to'rt marotaba ishtirok etdik,
– deydi viloyat IIB JTSB PPX batalyoni

otlig guruhi komandiri, katta serjant
A.Abdazov. – Xodimlarimiz o'zlariga
biriktirilgan xizmat otlaridan unumli
foydalanib kelmoqda. Ochiq joylar-
da o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar
chog'ida jamoat tartibini saqlash va
jamoat xavfsizligini ta'minlashga hissa
qo'shayotganimizdan mamnunmiz.

Xizmat otlari pitomnigida «Qora
quyun» laqabli bir bosh zotdor ot
bor. Qolganlari mahalliy otlarni tashkil
etadi. Jonivorlar yuqumli kasalliklarga
chalinishining oldini olish maqsadida
muntazam ravishda Namangan sha-
har veterinariya bo'limi shifokorlari
ko'rigidan o'tkazib kelinmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
«Postda» muxbiri.
Namangan viloyati.

✓ **Yoshlar – kelajak bunyodkori**



**Toshkent shahar IIBB PPX brigadasi 1-maxsus
safariylik batalyoni 2-otryadi 2-guruh
komandiri, leytenant Asrorbek Anvarjonov
zimmasidagi vazifaga sidqidildan yondashadi.
U poytaxtimizda tashkil etiladigan ommaviy
tadbirlar paytida fuqarolar xavfsizligini
ta'minlashda hamisha faol.**

**Leytenant A.Anvarjonov, shuningdek, aholi
xavfsizligini ta'minlash, sodir etilishi mumkin
bo'lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning
oldini olish yuzasidan o'tkazilayotgan tungi
reydlarda ham muntazam faol qatnashib
keladi. Bu jarayonda u boshqa xizmat vakillari
bilan birgalikda bir nechta huquqbuzarlik
holatlarini, jinoyatlarni «issiq izida» ochishda
faollik ko'rsatdi.**

JAHONGIR ENDI XORIJDA O'QIYDI



**Jahongir internet orqali bir tengdoshining xorijda o'qish imkonini
beradigan grant yutib olgani haqidagi videorolikni ko'rib, ta'sirlandi.
Ichida bir uchqun alanga oldi...**

IELTS-6 sertifikatini qo'lga kiritgach,
AQSHdagi universitetlarga hujjat top-
shirishga kirishdi. Buning uchun biroz kech
qolganini bilib, avvaliga sal hafsalasi pir
bo'ldi. Biroq ahddan qaytmadi, 2022-yilning
dekabr oyida beshta universitetga hujjatla-
rini topshirdi.

– Mart oyida AQSHning Ogayo shtatida-
gi «Cleveland State University» oliygohidan
javob xati kelganida rosa xursand bo'ldim,
– deydi IIV Surxondaryo akademik litseyi
o'quvchisi Jahongir Ravshanov. – Biroq
grant miqdori kamligi uchun bu menga
to'g'ri kelmadi. Biroz o'tib, grantsiz oliy
o'quv yurtida o'qish taklifini ham oldim.
Uni ham rad qildim. Va nihoyat, Nyu-York
shahridagi St.John's universitetida tahsil
olishim uchun menga 138 ming AQSH
dollari miqdorida grant ajratilishi haqidagi

xushxabarni oldim. Ota-onam, yaqinlarim
bundan juda quvonishdi.

Hozirda qahramonimiz sentabr oyida
boshlanadigan o'quv yiliga tayyorgarlik
ko'rmoqda. U biznes administrator yo'nalishi
bo'yicha xorijda tahsil oladi.

– Quvonarlisi, universitet u yerda meni
turarjoy bilan ta'minlanishim uchun ham
mablag' ajratdi, – deydi Jahongir. – Endi
xorijda puxta bilim olib, yurtimiz uchun ma-
lakali kadr bo'lib yetishishni niyat qilganman.
O'qishni muvaffaqiyatli tamomlasam, ona
yurtimga qaytib, Vatanimiz ravnaqi uchun
bor kuch va salohiyatimni sarflayman.

Qat'iyatli, tirishqoq qahramonimiz –
Jahongirning kelgusi o'qishlariga omad
tilaymiz.

Feruz RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.

Surxondaryo viloyati.



Янги Ўзбекистон – янги ички ишлар органлари

ҲАР БИР САЙЁҲ ЎЗИНИ ХАВФСИЗ СЕЗСИН

Қадимий ва навқирон Шаҳрисабз шаҳрида туристлар оқимини кўпайтириш, уларга қулай ва хавфсиз шароит яратиш мақсадида кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. «Яшил шаҳар»га ташриф буюраётган хорижий ва маҳаллий сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш, тарихий обидалар атрофида жамоат тартибини сақлаш борасида Қашқадарё вилояти ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ходимлари самарали хизмат олиб бормоқда.

– Жорий йилнинг ўтган даврида вилоятимизга 19 мингдан ортиқ хо-

рижий, 303 мингдан зиёд маҳаллий сайёҳлар ташриф буюрди, – дейди вилоят ИИБ ХТТБ бошлигининг ўринбосари, подполковник Суҳробхон Мухторов. – Ходимларимизга турли масалаларда ёрдам сўраб 1694 нафар хорижий, 5433 нафар маҳаллий сайёҳ мурожаат қилди ва уларнинг барчасига зарур ёрдамлар кўрсатилди. Сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш мақсадида туризм объектлари ва уларга туташ ҳудудларда 143 марта турли йўналишларда профилактик тадбирлар ўтказилди.



Кейинги вақтда вилоятда халқаро кўргазма ва ярмаркалар, илмий-амалий конференциялар, турли сайиллар, фестиваллар, байрам кечалари ўтказилиши анъанага айланиб бормоқда. Жумладан, 11–13 май кунлари Шаҳрисабз шаҳри ҳамда Яққабоб ва Китоб туманларида «Ethno and modern fashion week» халқаро фестивали бўлиб ўтди. Фестивалга дунёнинг 18 та мамлакатидан юздан ортиқ иштирокчилар ташриф буюрди. Шунингдек, кўп сонли хорижий ва маҳаллий сайёҳлар ташрифи

кузатилди. Асосийси, тадбирнинг тинч ва осойишта ўтишида Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ходимлари ҳам сергаклик билан хизмат қилишди. Бошқарма ходимларининг тегишли ташкилотлар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари билан ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатлари натижасида фестивал мобайнида сайёҳлар билан боғлиқ биронта кўнгилсиз ҳолат юз беришига йўл қўйилмади.

Жавлонбек АЛЛАЕВ,
капитан.

Қашқадарё вилояти.

КУНУ ТУН ХУШЁР

Ҳудудда жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда Ҳазорасп тумани ИИБ Ташкилий бўлинмаси навбатчилик қисми ходимларининг ҳам муносиб ҳиссаси бор. Улар куч ва воситаларни марказлашган ҳолда бошқариш, фуқаролар мурожаатларини аниқ ва тезкор қабул қилиш, тергов-тезкор гуруҳини кечиктирмасдан ҳодиса жойига йўналтириш каби муҳим вазифаларни бажаришда куну тун ҳушёрлик билан хизмат қилишмоқда.



Навбатчилик қисми катта инспектор навбатчиси, майор Дониёр Панаев ҳамда навбатчи ёрдамчиси, сафдор Муҳиддин Курёзов хизмат пайтида.

– Жорий йилнинг ўтган даврида навбатчилик қисми ходимлари фуқаролардан 2265 та мурожаатни қабул қилган, – дейди туман ИИБ Ташкилий бўлинмаси бошлиғи, капитан Ғайрат Қутлимуратов. – Шундан 112 та ҳолатда тергов-тезкор гуруҳининг ҳодиса жойига чиқиши таъминланган ҳамда 11 та жиноят «иссиқ изида» фош этилган. Шу ўринда ҳудудларда жиноят ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш мақсадида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари билан ҳамкорликда «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида профилактик тадбирлар давом этаётганини алоҳида таъкидлаш лозим.

Навбатчилик қисми моддий-техник базасини яхшилаш, ходимларга муносиб хизмат шароитини яратиш ҳамда уларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилишга алоҳида эътибор қаратиляпти. Ходимлар билан белгиланган режа асосида ўқув ва амалий машғулотлар ўтказиб келинмоқда. Бунда соҳа ходимларининг касбий маҳорати ҳамда жанговар шайлигини ошириш, соҳа-

вий хизматларга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни чуқур ўрганиш ва хизматни шу асосда ташкил этиш бўйича тушунтиришлар берилмоқда.

Хулоса ўрнида, навбатчилик қисми ходимлари ички ишлар ва бошқа ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари иштирокида ўтказиладиган турли тадбирларда ҳам фаол қатнашиб келаётганини айтиш лозим. Масалан, навбатчи ёрдамчиси, кичик сержант Мансурбек Раҳимов бир неча йиллардан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари ўртасида шахмат бўйича ўтказилаётган республика миқёсидаги мусобақаларда иштирок этиб, совриндорлар сафидан жой олмоқда. Бундан ташқари, фидойи ходимлар ҳақида гап кетганда, Ташкилий бўлинма катта инспектор навбатчиси, подполковник Марк Сафаев, майор Дониёр Панаев, навбатчи ёрдамчилари, сафдорлар Сарварбек Жабборов ва Муҳиддин Курёзов номларини алоҳида таъкидлаш лозим.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.



Внимание: подросток!

ПОМОЧЬ ОСТУПИВШЕМУСЯ

Проблема преступности среди несовершеннолетних – вопрос болезненный. К его разрешению задействовано немало организаций, учреждений и ведомств, но ключевую миссию все же выполняют правоохранительные органы в лице инспекторов профилактики по делам несовершеннолетних.

Мы побеседовали с капитаном Анваром Долиевым, чтобы узнать, какие меры предпринимаются по борьбе с подростковой преступностью.

– Уровень преступности среди несовершеннолетних, в отличие от предыдущих лет, немного снизился, это говорит о том, что мы на правильном пути, – говорит капитан А. Долиев. – За четыре месяца текущего года совершено 30 противоправных деяний, этот показатель в прошлом году был больше – 34. Как ни странно, но «лидерами» являются отдаленный Нарпайский и соседний Пастдаргомский районы. Замыкает тройку город Самарканд.

Если в минувшем году в преступлениях участвовало 57 подростков, то в нынешнем году показатель составил 52. Правонарушителей прибавилось среди школьников, учащихся профессиональных колледжей и незанятой молодежи. Анализ показывает: учащиеся академических лицеев

ни разу не совершили преступления, что не скажешь про студентов вузов – на их счету три противоправных деяния.

Наиболее часто совершаемое подростками преступление – кража. Причем происходит это достаточно спонтанно либо под влиянием дурной компании.

– Каждое деяние изучается детально, – продолжает наш собеседник. – Многие думают, что цель – доказать вину и наказать несовершеннолетнего нарушителя. Но это не так. Мы понимаем, наказать несовершеннолетнего – дело несложное. С одной стороны, подросток должен понести ответственность за противоправный поступок, но важно окончательно не поломать его судьбу, помочь обрести достойное место в обществе.

Беседуя с нами, инспектор А. Долиев отметил, что в ряде случаев подростковой преступности способствует безразличие взрослых, в том числе родителей:



– С начала года свыше 400 родителям, не выполняющим обязанности по воспитанию детей, выписаны штрафы. Нельзя допускать, чтобы подростки были предоставлены сами себе. Проблема и в том, что многие учебные центры, спортивные секции оказывают услуги на коммерческой основе. Бесплатных мест недостаточно, но нам все же удается устроить подопечных в

центр детского творчества «Баркамол авлод». Сейчас его посещают около 90 ребят. Наша цель – не лишить подростка периода нормального детства, наполненного здоровым общением в семье, со сверстниками, а оградить от неверного шага.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».
Самаркандская область.

■ Андижанская область



ЧЕТКО НАЛАЖЕННАЯ РАБОТА

В приграничном с Кыргызстаном Пахтаабадском районе четко налажена работа по выдаче идентификационных карт, загранпаспортов, оформлению документов для получения гражданства Узбекистана, регистрации лиц, прибывающих из-за рубежа.

– Свыше 7,3 тысячи граждан с начала года получили идентификационные карты, 7329 стали обладателями загранпаспортов, – рассказывает начальник отделения миграции и оформления гражданства Пахтаабадского РОВД капитан Дониёрбек Ахмедов. – В целях создания дополнительных удобств для граждан в МСГ «Тошкургон» работает наш сотрудник. В махалле, расположенной в 25 километрах от райцентра, могут получить идентификационные карты и загранпаспорта жители близлежащих 22 махаллей.

Там ведет прием старший инспектор капитан Азизбек Валиев.

За истекший период текущего года 14 лиц без гражданства стали гражданами Узбекистана. Всего же за последние годы получили гражданство республики более 500 жителей района. Это в основном родившиеся в соседнем Кыргызстане, долгие годы проживавшие в нашей республике.

Стоит отметить, что в Пахтаабадский район часто приезжают люди из стран СНГ и дальнего зарубежья, чтобы проведать родственников или по делам биз-



неса. Им оформляется временная регистрация. С начала года такой вид регистрации оформлен для 1580 граждан соседнего Кыргызстана, 51 гражданин Российской Федерации, 9 граждан Таджикистана, 6 граждан Казахстана, а

также прибывших из Дании, Турции, Словении, Германии.

Капитан Д. Ахмедов служит в ОВД с 2014 года. Являлся постовым сотрудником отделения охраны Избасканского РОВД, оператором адресного бюро, инспекто-

ром по особо важным поручениям управления миграции и оформления гражданства УВД Андижанской области. На нынешней должности работает около двух лет.

– В наше отделение люди обращаются по разным вопросам, – говорит капитан Д. Ахмедов. – Даем исчерпывающие консультации, оперативно оформляем необходимые документы.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».

На снимках: начальник отделения миграции и оформления гражданства Пахтаабадского РОВД капитан Д. Ахмедов беседует с жительницей района Г. Хасановой; старший сержант М. Ибрагимов настраивает аппаратуру для фотосъемки.

Фото автора.




Tuman IIB faoliyatidan

NATIJALAR KO'NGILDAGIDEK

Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Chunki xotirjamlik bor joyda qut-baraka, farovonlik bo'ladi. Shu bois ham ichki ishlar organlari xodimlari tunu kun xalqimiz osoyishtaligi yo'lida tinim bilmay xizmat qilmoqda.

Buxoro viloyatining Romitan tumanida ham o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar ko'rilgani tufayli



jinoyatchilik holatlari keskin kamaydi. Og'ir jinoyatlarning sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Shu yilning 9-apreldan 10-aprelga o'tar kechasi soat taxminan 23:30 larda «Gazli» mahalla fuqarolar yig'inining cho'l massivida joylashgan «Evroscon Central Asia» MCHJga qarashli vaqtinchalik saqlab turish maydonchasi hududidan umumiy bahosi 108 million so'mga yaqin beshta elektrodvigatel va o'n ikkita boshqa ehtiyot qismlar nomal'mum shaxslar tomonidan talon-toroj qilinadi. Mazkur holat yuzasidan olib borilgan tezkor-surrishtiruv ishlari natijasida to'rt kishidan iborat jinoyatchilar guruhi qo'lga olindi. Ulardan o'g'irlangan narsa hamda buyumlar daliliy ashyo sifatida hujjatlashtirib olindi.

Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ko'plab profilaktik tadbirlar, tashviqotlar o'tkazib borilyapti, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Shahob Hayitov. Xususan, jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va bartaraf etishda «fuqarobay», «oilabay» va «mahallabay» ishlash orqali huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini ta'minlash hamda «Xavfsiz mahalla» va «Xavfsiz hudud» tamoyillari asosida mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikda ishlash faoliyatimizning bosh me-

zoniga aylandi. Misol uchun, «Tun» tadbirlari davomida hududlarga chiqilib, qarovsiz qoldirilgan chorva mollarining egalari chaqirtirilib, o'g'irlik holatlarining oldini olish choralari ko'rilmogda. Buning natijasida shu kungacha chorva mollarini o'g'irlash holati qayd qilinmadi. «Tong» tadbiri davomida asosan qidiruvdagi shaxslar yashiringan manzillar aniqlanib, ularni qo'lga olyapmiz. Yil boshidan buyon qidiruvdagi 6 nafar shaxs ushlangan bo'lsa, shundan

o'rganildi. Korxonalar, tashkilot, ta'lim muassasalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarida jinoyat hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Shuningdek, jamoat tartibini buzish bilan bog'liq 3852 ta ma'muriy huquqbuzarlik holati aniqlanib, tegishli tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Profilaktik hisobda turuvchi 758 nafar shaxs bilan esa yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazildi. Bundan tashqari, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 25 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Mahalla raislari, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda 49 ta nizoli oila xonadonlariga kirilib, tushuntirishlar olib borildi.

Shuningdek, ko'p qavatli uylar, mahalla guzarlari, ta'lim muassasalari, savdo shoxobchalari, noturarjoy obyektlarini videokuzatuv moslamalari bilan jihazlash, qo'riqlov pultiga ulash hamda kriminogen vaziyati og'ir hududlarda joylashgan barcha do'kon va spirtli ichimliklar savdosi bilan

shug'ullanuvchi shoxobchalarga «tovushli tashvishgoh», «tashvish tugmasi» o'rnatish choralari ko'rilmogda. Tadbirlar yakunida 42 ta savdo maskaniga videokuzatuv moslamalari o'rnatildi.

Tuman IIB kadrlari bilan ta'minlash guruhi ham xodimlarning kasbiy mahorati, jismoniy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini oshirish, ularni har tomonlama malakali qilib tayyorlashda jonbozlik qilishmogda. Qolaversa, ustoz-shogird an'anasiga katta e'tibor berilgan. Joriy yilning o'tgan davrida xizmatga qabul qilingan olti nafar yosh xodimga ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan xodimlar – podpolkovniklar Madiyor Majitov, Azizjon Fayziyev, mayorlar Samixjon Nosirov, Shamsi Komilovlar ustozlik qilmogda. Bundan tashqari, tuman IIBda uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan faxriylar bilan ham tez-tez uchrashuvlar, tadbirlar o'tkazilishi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim omil bo'lmoqda.

Xodimlar jangovar va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ham katta yutuqlarga erishyapti. Uzoqqa bormaylik, «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!» shiori ostida o'tkazilgan «Ma'naviyat oyligi» doirasida viloyat ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida bo'lib o'tgan «Zakovat» intellektual o'yinlarida tuman IIB jamoasi faxrli birinchi o'rinni egallab, 9 million 900 ming so'mlik sertifikat va qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritishdi hamda respublika bosqichiga yo'llanmaga sazovor bo'lishdi.

Mirzoqul AHADOV,
«Postda» muxbiri.

Buxoro viloyati.



2 nafari aynan «Tong» tadbirida ushlandi. Yana aholining firibgarlik qurboniga aylanib qolmasligi uchun xonadonma-xonadon yurilib, ogohlantirishlar, profilaktik suhbatlar o'tkazilmogda hamda bukletlar tarqatilmogda.

Shu bilan birga ayni paytda 45 ta mahalla fuqarolar yig'inida xizmat ko'rsatayotgan profilaktika inspektorlari mahalla faollari bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yishgan. Har hafta payshanbada «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat idoralari va jamoatchilik vakillari ishtirokida keng qamrovli profilaktik tadbirlar o'tkazilmogda.

Amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar davomida jumladan, mulkchilik shaklidagi 1176 ta obyekt, 2836 ta aholi xonadoni





Hafta qahramonlari

OILAGA QUVONCH QAYTTI



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Poytaxtimizning Shayxontohur tumani Beruniy – Samarqand darvoza ko'chalari kesishgan chorrahadagi piyodalar o'tish joyidan ko'plab fuqarolar yo'lining narigi tomoniga o'tishadi. Ammo shunga yaqin joydan, ya'ni yo'l qatnov qismining belgilanmagan joyini kesib o'tayotgan fuqarolar ham talaygina. Shu sabab Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 3-batalyoni 4-safarbarlik guruhi YPX katta inspektori, leytenant Nodirbek Abduvohidov va YPX inspektori, serjant Sherzod Anvarov bunday qoidabuzar fuqarolar bilan profilaktik tadbir olib borayotgan edi.

Shu payt xodimlar piyodalar yo'lkasida chamasi 2–3 yoshlardagi qizaloqning yig'lab turganini ko'rib qolishadi. Uning atrofiga katta kishilar yo'q. Demak, u yolg'iz, adashib qolgan bo'lishi mumkin. Osoyishtalik posbonlari darhol qizchani oldiga borib, uni savolga tutishdi. Ammo qizcha gapira olmasdi, buning ustiga, sarosimaga tushgan edi. Xodimlardan biri uni qo'lga olib ovutdi, suv, ul-bul yegulik berdi. Ikkinchisi ratsiya orqali bola topib olingani to'g'risida xabar berdi.

Biroz vaqt o'tib, Shayxontohur tumani IIOFMB Navbatchilik qismidan bolasini yo'qotib qo'ygan ota-ona murojaat qilib kelganligi to'g'risida xabar keldi. Biroq ularning bergan ko'rsatmasi bo'yicha bu qizaloq ularning farzandi emasligi ma'lum bo'ldi. Shu tariqa, oradan 2–3 soatga vaqt o'tdi. Endi tuman IIOFMB 2-IIBdan bir ona bolasini yo'qotib qo'yganligi to'g'risida xabar tush-

di. Shundan so'ng xodimlar tezda shu tomon yo'l olishdi. Borishsa, haqiqatan ham, bolaning onasi shu yerda ekan. U dilbandini bag'riga bosib yig'lab yubordi.

Keyin ma'lum bo'lishicha, ayol onasi, buvisi, xolalari bilan Qozog'iston Respublikasining Ostona shahridan mehmon bo'lib kelishgan ekan. «Chorsu» bozoriga aylanish uchun piyodalar o'tish joyidan o'tayotganda odam ko'pligi sabab, buvisining qo'lidan chiqib ketgan qizaloq yo'qolib qolgan va bir o'zi yo'lining qarama-qarshi tomoniga o'tib ketgan...

Farzandini eson-omon ko'rgan onaning quvonchi cheksiz. Bee'tiborligi tufayli nabirasini qo'lidan chiqarib yuborgan buvi esa osoyishtalik posbonlarining haqqiga duo qilib, ularga qayta-qayta o'z minnatdorligini bildirdi.

Sarvar SOBIROV,
«Postda» muxbiri.

Toshkent shahri.



Faxriylar safda

«ORJAP»NING TAJRIBALI RAISI

Fuqarolar yig'ini idorasiga kirib kelgan er-xotin bir-biriga baland ovozda gapirib, har biri o'zicha haq ekanligini isbotlamoqchi bo'lardi. Ularni kutib olgan fuqarolar yig'ini raisi Turdibek Dospanov janjalga nima sabab bo'lgani bilan qiziqdi. Erning aytishicha, u kirakashlik bilan shug'ullanib, uloviga ehtiyot qism olish uchun uyida pul jamg'arib kelgan. Yaqinda pullari qo'ygan joyida yo'qligini ko'rib, xotini olgan, degan gumonda ekan. Ayol esa erining jamg'armasini olmaganini bildirdi.



Ikkala tomonning ham so'zlarini eshitgan T. Dospanov bu vaziyatda er-xotin bilan birga, ular yashaydigan ko'cha biyi va bir-ikki qo'shni guvohligida uyni yaxshilab ko'zdan kechirish, oilaning boshqa a'zolari bilan suhbat o'tkazish lozim, degan xulosaga keldi. Xonadonga kelib o'rganish davomida esa ularning maktabda o'qiydigan farzandi jamg'armani topib olgan, bir-ikki so'mini maktab oshxonasidan yegulik sotib olishga ishlatgani oydinlashdi. Natijada kelishmovchilikka barham berildi.

Hozirda Chimboy tumanidagi «Orjap» makon fuqarolar yig'ini raisi bo'lib ishlab kelayotgan Turdibek Dospanov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 1984-yili tuman IIB qo'riqlash xizmatida boshlagan. Keyinchalik voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor, yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'i lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2012-yilda «podpolkovnik» unvoni bilan pensiyaga chiqqan. 28 yillik xizmat faoliyatida katta tajriba to'plagan qahramonimiz 2014-yilda ilk marta makon fuqarolar yig'ini raisi etib saylandi.

– Bugungi kunda hududimizdagi 942 ta xonadonda 4600 nafardan ortiq aholi istiqomat qilmoqda, – deydi Turdibek Dospanov. – O'zim shu yerda tug'ilib o'sganim uchun ularning hech biri menga begona emas. Shu bois aholi meni qo'llab-quvvatlab, o'tgan yili may oyida ikkinchi marotaba rais etib saylashdi. Endilikda bildirilgan ishonchga munosib bo'lish uchun baholi qudrat harakat qilib kelyapman.

Aholining turmush darajasini yaxshilash, joylardagi muammolarni

o'rganish va hal etishda «mahalla beshligi» tamoyili asosida ish yo'lga qo'yilgan. Bunda hokim yordamchisi Ruslan Ilyosov, hudud profilaktika inspektori, katta serjant Usen Jumabekov, mahalla xotin-qizlar faoli Patima Qaypanova, yoshlar yetakchisi Azizbek Abdreyimovlar yaqindan yordam berib kelmoqda.

Makon fuqarolar yig'ini hududidagi xonadonlarni uyma-uy yurib o'rganish natijasida 3 nafar fuqaro «Temir daftar», 131 nafari «Ayollar daftari», 20 nafari «Yoshlar daftari»ga ro'yxatga olingan bo'lib, ularga yordam berish choralari ko'rilmogda. Masalan, fuqaro Sh.Aliyevga motokultivator olib berildi. Sh.Uzaybayevaga esa tikuv mashinasi olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

– Bu hududga birlashtirilganimga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi, – deydi profilaktika inspektori, katta serjant Usen Jumabekov. – Lekin o'tgan vaqt mobaynida aholi bilan ishlashda makon fuqarolar yig'ini raisi T. Dospanovning ko'magida tajriba to'pladim. Ancha yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgani bois rais bilan bamaslahat ish olib boryapmiz. «Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmasligi kerak», «Biz jinoyatchilikka qarshimiz» tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Maqolamiz qahramoni T. Dospanovning oilasi namunali oilalardan sanaladi. U turmush o'rtog'i Perdexan Saparova bilan birgalikda 3 qiz, 1 o'g'ilni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Ular turli jabhalarda xizmat qilib kelmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
«Ha nocty» muxbiri.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



ЧЕЛОВЕК, ПРИРОДА И ПРИРОДНЫЕ КАТАКЛИЗМЫ

Природные катаклизмы, являющиеся совокупностью природных явлений, происходят в результате сложных процессов планетарного масштаба. Чаще всего они наблюдаются в Северной и Южной Америке, Индонезии, Западной Европе и Азии. Предсказание погоды, основанное на показаниях специальной аппаратуры, информирует население о надвигающихся опасных явлениях, которые могут иметь разрушительный характер, но, к сожалению, данная информация поступает всего за несколько часов до самих явлений.

6 февраля в Турции и Сирии произошло несколько сильных землетрясений, которые застали население врасплох и имели разрушительные последствия с многочисленными жертвами и пострадавшими. Воедино сложилось несколько факторов – критерий внезапности, халатность строителей, возводивших в свое время жилые и административные здания с грубыми нарушениями технологий и инструкций, сила подземных толчков и многое другое. Это лишь один из примеров, когда природный катаклизм неотвратимо сметает все на своем пути, демонстрируя, насколько человек бессилён перед грозной мощью разбушевавшейся природы.

На память приходят события 1966 года, когда 26 апреля в городе Ташкенте произошло землетрясение. Толчки длились 10-12 секунд, а площадь максимальных разрушений достигла 10 километров. Магнитуда землетрясения была 5,2, однако из-за того, что очаг землетрясения залегал очень близко к поверхности, оно вызвало 8-9 балльные толчки. Развалились и получили сильные повреждения дома, были разрушены десятки общественных зданий. Более 300 000 человек остались без крова. Огромное количество людей откликнулось на беду ташкентцев. Благодаря самоотверженному труду строителей Ташкент поднялся из руин и стал еще краше.

Как правило, землетрясения происходят около границ тектонических плит, когда участки земной коры скользят или сталкиваются между собой, как машины во время ДТП. Но поскольку они огромного размера, возмущение от этих событий затрагивает значительные площади. Мелкие толчки случаются очень часто – до 30 раз в день, но большинство не приносят вреда. Однако самые сильные из них уносят тысячи жизней и причиняют миллиардный ущерб.

Например, в Калифорнии (США) специалисты долгие годы наблюдали за разломом Сан-Андреас. Они обратили внимание, что землетрясения там происходили с удивительной регулярностью – каждые 22 года. Это давало надежду, что будущее событие такого рода удастся точно предсказать. По расчетам, оно должно было произойти в районе 1993 года. Но толчок «опоздал» на 11 лет. Периодичность нарушилась, а среди ученых распространилось убеждение, что краткосрочный прогноз невозможен.

Сегодня исследователям известно очень много предвестников землетрясений. К примеру, выход определенных газов на поверхность земли, подъем уровня подземных вод, изменение магнитного поля и проводимости земной коры, нагрев определенных областей поверхности. Эти процессы могут происходить за несколько недель или месяцев до самого землетрясения. Однако ни один из них не может служить точным индикатором, на который могли бы опереться службы оповещения.



Существует точка зрения, что животные и насекомые чувствуют приближение землетрясения. Специалисты, изучавшие поведение муравьев в периоды сейсмической активности, сделали вывод, что те накануне даже слабого (2 балла) толчка демонстрируют необычный всплеск активности. По мнению экспертов, это объясняется тем, что муравьи улавливают мельчайшие концентрации газа, незаметные для человека. А разрушительное землетрясение 1975 года в Китае помогло предсказать... змеи, которые внезапно прервали спячку и выползли на снег. Но единственного показателя, на который бы можно было положиться, по-прежнему нет.

Немалую угрозу для человечества представляют и другие разрушительные природные явления. Так, в некоторых странах наводнения составляют 34% всех чрезвычайных ситуаций природного характера. Еще 5% – оползни и обвалы, многие из которых тоже связаны с проливными дождями и разливом рек. Ураганы и торнадо могут вызывать

громоздкие цунами, обрушивающиеся на прибрежные города. В целом катастрофы, связанные с водой и ливнями, угрожают человечеству все сильнее.

Буквально на днях Кубань (Краснодарский край России) подверглась самому настоящему ледяному удару в виде града размером с куриное яйцо. Природная стихия пронеслась, повредив значительное количество построек в сельских поселениях, автомобили, уничтожила посевные площади с урожаем.

Один из признаков будущего пожара – скопление горючего материала. Специалисты говорят, что пожар должен «созреть». Другими словами, на территории должны сложиться условия, связанные с наличием сухой травы, торфа или лесного сухостоя. Возгорание могут спровоцировать и долгая сухая



погода, определенная сила ветра, низкий уровень влажности. Однако в этом присутствует еще один основной и возможно самый главный фактор – человеческий. В большинстве случаев виновниками пожаров становятся сами люди, так или иначе устроившие возгорание. Часто последствия таких пожаров, несущихся сплошной огненной стеной, уничтожающей все на своем пути, бывают весьма плачевны.

Извержение вулкана чем-то напоминает «выстрел» бутылки с газированным напитком. Этот процесс называется дегазацией: давление газа заставляет жидкость с силой расширяться и выходить наружу. У вулканов вместо жидкости – расплавленная магма. Это расплавленные горные породы, смешанные с веществом земной мантии и газами. В определенный момент газы рас-

ширяются, проламывают земную кору в тонких местах и вырываются на поверхность вместе с потоками лавы.

...Воздействие человека на окружающую среду принимает глобальные масштабы. Антропогенный фактор становится ведущим, без его учета невозможно понять и оценить, что еще произойдет с нашим общим домом. Уровнем человеческого влияния на окружающую среду определяется и то, как измененная природа воздействует на дальнейшее развитие общества. Чем больше мы воздействуем на природу, тем активнее она нам отвечает. И в большинстве случаев ответ оказывается весьма далеким от благоприятного: ухудшается экологическая ситуация, все чаще происходят природные катастрофы. Судьба дальнейшего развития человечества зависит от того, насколько быстро будут найдены пути разрешения противоречий между ограниченными возможностями биосферы и агрессивным по отношению к ней типом развития общества. Ведь мы, как и все другие живые существа на планете, неотделимы от биосферы. Рамки окружающей природной среды, в которых мы можем существовать, достаточно узкие. Нам нужна определенная температура воздуха, солнечный свет, состав атмосферы, почвы и воды – именно та экологическая среда, в которой проходила эволюция на протяжении всей истории.

Да, человек умеет приспосабливаться к новым условиям обитания. Но только до известных пределов. И скорость такой адаптации не слишком велика. Как показывает практика, губительные изменения



природной среды идут гораздо быстрее, а значит, если не остановить эти изменения, человечество ждет трудные времена.

Человек, вооруженный технологиями, машинами и механизмами, в течение долгих лет активно воздействует на природу, иногда не задумываясь, к каким последствиям это может привести. Известны сотни, если не тысячи примеров пагубного влияния человеческой деятельности на природу, а в последнее время все чаще проявляются изменения глобального масштаба, угрожающие всему человечеству.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».





Бир жиноят муҳокамаси

ИШЛАР ТАЛАБ ДАРАЖАСИДА ЭМАС

Шовот туманида бўлиб ўтган муҳокама йиғилишида ана шундай хулосага келинди

Ҳар қандай салбий воқеа-ҳодисанинг оқибатлари билан курашиш эмас, балки унинг рўй беришига йўл қўймаслик энг мақбул йўл. Шу маънода, содир этилган жиноятни кенг жамоатчилик иштирокида муҳокама қилиш келгусида шу каби нохуш ҳолатларнинг барвақт олдини олишда муҳим аҳамият касб этади.

Яқинда Шовот туманидаги «Пахтакор» маҳалласида қотиллик билан боғлиқ мудҳиш воқеа юз берди. Мазкур жиноятнинг содир этилишига имкон берган омилларни ўрганиш, муҳокама қилиш ва келгусида йўл қўймаслик чораларини кўришга қаратилган йиғилишда вилоят ИИБ бошлиғи, туман прокурори, туман ҳокимлиги, маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими масъул ходимлари, маҳалла фуқаролар йиғини фаоллари ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари қатнашди.

Дастлаб қотиллик жинояти тафсилотлари юзасидан туман прокурори, адлия маслаҳатчиси Равшанбек Машарипов батафсил ахборот берди. Жумладан, жорий йилнинг 21 май куни «Пахтакор»

маҳалласида истиқомат қилган Т.У. ва хонадонидан бирга яшаб келган келини ўртасида низо келиб чиқади. Оқибатда у маст ҳолда ошхона пичоғи билан келинининг баданига бир неча мартаба жароҳат етказиб, аёлнининг ўлимига сабабчи бўлади. Ҳозирги пайтда Т.У. эҳтиёт чораси сифатида қамоққа олинган, унга нисбатан тергов ҳаракатлари олиб борилляпти.

Шундан сўнг сўзга чиққан вилоят ИИБ бошлиғи, генерал-майор Даврон Назармухамедов бугунги кунда вилоятни жиноятчиликдан холи ҳудудга айлантириш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирларга тўхталиб, мазкур қотиллик жинояти масъул ходимларнинг ўз зиммаларидаги вазифаларга совуққонлик билан қарагани оқибатида рўй берганини таъкидлади.

Жиноят муҳокамасида қотиллик содир этилган ҳудуд – «Пахтакор» маҳалла фуқаролар йиғини раиси, унинг ўринбосари ҳамда ҳудуд профилактика инспектори томонидан маҳаллада жиноятчиликни жиловлash борасида амалга оширилаётган тарғибот-ташвиқот



тадбирлари, «маҳаллабай», «хонадонбай», «фуқаробай» тизими йўналишида олиб борилаётган ишлар юзасидан ҳисоботлар тингланди. Шунингдек, гумонланувчининг яқинлари, қариндошлари, кўни-қўшилари ҳамда имомхатибнинг воқеа юзасидан фикр-мулоҳазалари ҳам эшитилди.

Йиғилишда туман ҳудудида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича амалга оширилаётган ишлар бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда ташкил этилмаётгани,

масъул раҳбарлар томонидан бу йўналишдаги ишларга етарли эътибор қаратилмагани танқид қилинди. Муҳокама якунида жиноятнинг келиб чиқишига сабаб бўлган омиллар атрофлича ўрганилиб, хизмат вазифасини талаб даражасида бажармаган масъул ходимларни интизомий жавобгарликка тортиш бўйича тегишли қарор қабул қилинди.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.



Инсон қадри учун

ЎЗ ВАҚТИДА, ТЕЗКОРЛИК БИЛАН



Миробод тумани ИИОФМБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлимида иш қизғин. Масалан, ходимлардан икки нафари чет эл ва МДХга аъзо давлатлар фуқароларини вақтинча рўйхатга олиш билан банд бўлса, яна бири Ўзбекистон Республикаси фуқаролигига қабул қилиш, фуқароликдан чиқиш ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг мурожаатларини қабул қилмоқда.

Бўлимда мурожаат билан келаётган фуқароларга барча шартшароитлар яратилган. Бинонинг кириш йўлакларидан тегишли ҳужжатлар намуналари ва зарур кўргазмали стендлар ўрнатилган. Ходимлар ҳар бир фуқарога ҳушмуомалалик билан мулоқотга киришмоқда.

– Ходимларимиз томонидан жорий йил бошидан буён 28433 нафар фуқарога турли масалалар бўйича давлат хизматлари кўрсатилди, – дейди туман ИИОФМБ М ва ФРБ бошлиғи, подполковник Зоҳиддин Сайдалиев. – Жумладан, 3227 нафар фуқаро доимий яшаш жойи бўйича рўйхатдан ўтказилган бўлса, 2558 нафари вақтинча яшаш жойи бўйича рўйхатга қўйилди.

Шунингдек, 3148 нафар 16 ёшдан катта ва 891 нафар 16 ёшдан кичик фуқароларга хорижга чиқиш биометрик паспорти, 8984 нафар ҳамюртимизга эса ID-карталар берилди. Бундан ташқари, 11 нафар доимий ва вақтинча яшаб турган, боқувчисини йўқотган, ногиронлиги бор

фуқаролар ҳамда кексалар миграция бўлимига келиш имконияти йўқлиги сабаб, яшаш манзилларига чиқилиб, уларга ID-карталар расмийлаштирилди.

Интернет тармоғининг www.iibb.uz электрон саҳифасида миграция ва фуқароликни расмийлаштириш тизими учун алоҳида бўлим очилган. Шу ернинг ўзида ариза-анкеталардан электрон нусха кўчириш, тизимга оид масалалар бўйича маслаҳат олиш имконияти мавжуд. «Телеграм» ижтимоий тармоғидаги каналда эса мурожаатлар қабул қилиниб, фуқаролар ўзларини қизиқтираётган саволларга малакали ходимлар томонидан сифатли жавоб олиши таъминланмоқда.

– Бугун қизим Алияга хорижга чиқиш биометрик паспортини олдик, – дейди Раъно Жўраева. – Белгиланган ҳужжатларни тўлдирдик. Ҳеч бир оворагарчиликсиз ишимиз битди. Ички ишлар органлари ходимлари тезда паспортни расмийлаштириб беришди. Улардан миннатдоримиз.

Энг муҳими мана шу – фуқароларнинг мурожаатлари ўз вақтида ва тезкорлик билан ҳал этилмоқда. Ходимлар имкон қадар фуқароларни куттирмасдан, мурожаатларни кўриб чиқмоқда. Бу, албатта, аҳолида ички ишлар органларига бўлган ишонч ортишига сабаб бўлмоқда.

Сарвар СОБИРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент шаҳри.





Ma'naviyat va ma'rifat darsi

INSON, TABIIAT VA TABIIY OFATLAR

Yer yuzida aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi natijasida ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarish korxonalarini sonining muttasil oshib borishi, tabiiy resurslarning ko'plab ishlatilishi, transport vositalari soni va turlarining ko'payishi kuzatilmoqda. Buning oqibatida tabiatdagi antropogen o'zgarishlar ko'lami kengayib bormoqda.

Ekologik muammolar global ko'rinish kasb etib, muayyan sharoitga moslashgan ekotizim yo'qolib ketishiga birinchi navbatda antropogen omillar sabab bo'layotgani jahon ahlini tashvishga solmoqda. Dunyo bo'yicha yiliga qariyb olti million gektar yer cho'lga aylanayotgani, oltinchi mingga yaqin o'simlik, yetti mingdan ortiq hayvon turlari yo'qolib ketish arafasida turgani, inson tomonidan hosil qilinayotgan chiqindi miqdori yil sayin ko'payib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, haydaladigan yerlarning 40 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchrab, ziroatchilik, qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolgan hamjihatlikda tegishli choralar ko'rishga undaydi.

atrof-muhitni muhofaza qilish hamda global ekologik inqirozning oldini olishga qaratish va bu borada aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida 1972-yil 5-iyunda Stokgolm shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ekologik masalalarga bag'ishlangan konferensiyasini eslatish joiz ko'rinadi. Chunki unda qabul qilingan qarorga muvofiq, mazkur anjuman o'tkazilgan kun, ya'ni, 5-iyun dunyo miqyosida – Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, bog'rog'lar yaratish, obodonlashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan aksiyalar o'tkazib kelinadi.

Mamlakatimizda ham

masala sifatida qaralmoqda. Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etilib, Orolbo'yidagi shahar va tumanlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar jadal amalga oshirilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko'payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o'sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sa-

chiqindilarning fuqarolar hayotiga va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish hamda chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ammo ayrim zavod va fabrikalar havoga me'yori-dan ortiqcha tashlanma chiqarib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holatlar fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham respublikamizda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har bir hudud havo ifloslanishini tezkor tahlil qiladigan mobil laboratoriyalar bilan ta'minlanayotir. Atrof-muhitga yuqori va o'rta xavfli yirik sanoat korxonalarida zamonaviy lokal tozalash inshootlarini o'rnatish va mavjudlarini modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Yana bir muhim masala, dunyoda ilmiy-texnik taraqqiyot qanchalik rivojlanmasin, tabiat va inson o'rtasidagi ayrim muammolar, jumladan, tabiiy ofatlar xavfi yildan-yilga ortib, jiddiy talafotlarga sabab bo'lmoqda. Keyingi vaqtlarda yer kurrasida sodir bo'lgan voqealar: Amerika, Osiyo qit'alaridagi kuchli zilzila va sunamilar, Yevropadagi suv toshqinlari, turli mintaqalardagi yong'inlar ayrim tabiat hodisalari oldida insoniyat o'zligini, yetarli darajada tayyor emasligini ko'rsatdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, har kuni dunyoda o'rtacha 200 ga yaqin kishi tabiiy ofat qurboni bo'ladi. Lekin tabiiy ofatlarni tizginlash, ularning oldini olishning aniq ko'rsatmalarini ishlab chiqish hanuzgacha muammo bo'lib qolmoqda. Asosiy maqsad sayyoramizda tabiiy ofatlarning xavfini kamay-

tirish sohasidagi global madaniyatni shakllantirish, tabiiy ofatlar xavfini bartaraf qilish, ularning oqibatlarini kamaytirish va ofatlarga tayyorgarlikni oshirishdir.

BMTning Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish Xalqaro strategiyasi, Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti va Osiyo tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish markazi (ADRC) bu masala bilan bevosita shug'ullanadi. ADRC Osiyo qit'asida tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish maqsadidagi asosiy xalqaro hamkorlik tashkiloti sifatida 1998-yil tuzilgan, unga 25 ta mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham a'zo.

Yurtimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga qarshi kurashish tizimini yangi darajaga ko'tarish maqsadida Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat ekologiya qo'mitasining «Ekologik patrul» tizimi joriy etildi. Ekologik patrul guruhlarini tomonidan 2023-yilning o'tgan davri mobaynida 14 mingdan oshiq reydlar o'tkazilgan va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan 14 ming nafardan ortiq fuqarolar o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortilgan.

Xulosa shuki, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, kelajak avlodga tabiiy boyliklarni bus-butun yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shish har birimizning oldimizda turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Sarvar SOBIROV
tayyorladi.



Aks holda, mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, sayyoramizda millionlab yillar davomida shakllangan biologik xilma-xillik yaqin 50 yil ichida qariyb 50 foizga kamayishi mumkin ekan. Bu qanday oqibatlariga olib kelishini esa hatto tasavvurga ham sig'dirib bo'lmaydi.

Shu o'rinda jahon hamjamiyati e'tiborini

ayni shu yo'nalishda keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash va ekologik osoyishtalikni ta'minlash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga muhim siyosiy

nitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish sohasini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va qayta jihozlash natijasida atmosfera chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori kamayishiga erishilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar



Грани мастерства

ВО ИМЯ УСТАНОВЛЕНИЯ ИСТИНЫ

Дилмурод старался не показывать своего волнения, хотя его переполняли тревога и страх. Но не за себя он боялся... После смерти матери и отъезда отца в другую страну в поисках заработка, парнишка и его 7-летняя сестренка, Мохира, остались с бабушкой. Что будет с ними?

В тот злополучный день он вместе с приятелями гулял допоздна по городу. Потом компания начала приставать к прохожим, дело дошло до драки. Один подросток попал в больницу с сотрясением мозга. «Друзья», пытаясь избежать наказания, во всем обвинили Дилмурода, который не участвовал в избиении, наоборот, пытался разнять драчунов.

Старший следователь следственного отдела при УКД ОВД Юнусабадского района столицы подполковник Бобиршох Юлдашев, разбиравшийся в ситуации, после допросов, изучения записей с камер видеонаблюдения, установил, что Дилмурод действительно пытался лишь утихомирить распоясавшихся ребят.

– Немало случаев, когда несовершеннолетние хотят показать себя героями в глазах других, не думая о последствиях, – говорит Бобиршох Тохтаевич. – За 25 лет

службы я немало повидал – и матерых преступников, и невинных людей, которых «доброжелатели» всячески пытались обвинить в совершении преступления. Задача следователя – оперативно и качественно расследовать преступление во имя установления истины. Необходимо собрать все улики, факты, доказательства, чтобы виновный не избежал наказания, а невинный не пострадал, чтобы восторжествовала справедливость. От грамотного ведения следствия зависит судьба человека.

Подполковник всегда помнит своего наставника – старшего следователя Исфандиёра Рискулова. В далеком 1998 году Бобиршох Юлдашев в звании старшины только начинал деятельность в следственном звене. Наставник учил правильной расстановке приоритетов при ведении уголовных дел, грамотно оформлять документы. Благодаря его советам молодой специалист



уже через полгода мог работать самостоятельно.

Помимо отличного знания права, следователь должен быть тонким психологом, обладать аналитическим мышлением, убежден Бобиршох Тохтаевич.

Несмотря на плотный график работы, старший следователь регулярно проводит теоретические и практические занятия с начинающими специалистами, подавая им пример профессионализма и преданности своему делу.

Даже в выходные дни он допоздна задерживается на службе. В семье с пониманием относятся к этому, но его всегда с нетерпением ждут супруга, Саида Абдуганиевна, два сына – Нодиршох и Зафаршох, являющиеся студентами Ташкентского государственного технического университета, и дочь, Азизахон, мечтающая поступить в Ташкентский фармацевтический институт.

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.

Тактические учения

ДЕМОНСТРИРУЯ БОЕВУЮ ВЫУЧКУ



В воинской части №7260 Войск МВД по обеспечению безопасности в международных аэропортах, дислоцирующейся в городе Ургенче, проведено взводно-тактическое учение. В мероприятии принял участие личный состав мобильного взвода, выполняющего специальные задачи.

Взводно-тактическое учение началось с отработки управленческих решений командиров. Личный состав по сигналу «Тревога» на бронетранспортерах и специальной технике прибыл на учебно-полевой полигон Ургенчского гарнизона Министерства обороны

Узбекистана. Здесь состоялись практические занятия по стрельбе, инженерному обеспечению, охране района. Военнослужащие преодолели коридор психологической и физической нагрузки, отрабатывали навыки оказания первой помощи раненым, выпол-

няли тактико-тренировочные упражнения, направленные на повышение боеготовности, принятие верных решений в сложных и экстремальных условиях.

Алижон ШОДИЕВ,
подполковник.

Хорезмская область.





Терговни билимдонлар олиб боради

БАЪЗИДА ПСИХОЛОГ БЎЛИШ ТАЛАБ ҚИЛИНАДИ

Темирйўл вокзали ҳудудини айланиб чиқиш чоғида патруль-пост хизмати ходимларида «Андижон – Қўқон» йўналиши бўйича қатновчи поездга чиқмоқчи бўлган йигит шубҳа уйғотди. Ёнида катта сумкаси бўлган йигит ходимларни кўриб, саросимага тушиб қолди. Холислар иштирокида тинтув қилинганида эса унинг сумкасидан гугурт кутисига жойланган учта пластик пакетда жигаранг модда топилди.

Экспертиза хулосасига кўра, умумий оғирлиги 0,81 грамм бўлган бу топилмалар гашиш моддаси экан. Шунга кўра, вилоят марказида яшовчи Аҳмад Исаев (исм-шарифи ўзгартирилди) га нисбатан жиноят иши кўзғатилди. Иш бўйича тергов олиб бориш ИИБ Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъминлаш департаментининг Андижон вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси тергов гуруҳи терговчиси, майор Жўраҳон Ҳамдамовга топширилди.

– Гумонланувчи А.Исаев 2015 йилда жиноят ишлари бўйича Хонобод шаҳар суди томонидан судланиб, Жиноят кодексининг 273-моддаси учинчи қисми билан 4 йил муддатга озодлик-

дан маҳрум этилган экан, – дейди майор Жўраҳон Ҳамдамов. – Аммо у бундан тўғри хулоса чиқармаган. Андижон туманидаги далалар четида ёввойи ҳолда ўсадиган наша ўсимлиги ҳосилини териб, ундан уй шароитида гашиш тайёрлаган.

Хуллас, мазкур жиноят иши бўйича тергов якунланиб, судда кўриб чиқиш учун топширилди. А. Исаев ўз қилмишига яраша жазо олишига шубҳа йўқ.

Жўраҳон Ҳамдамов хизмат фаолиятини 2001 йилда Андижон бекатидаги тармоқ ИИБ патруль-пост хизмати бўлими ходими сифатида бошлаган. Хизматдан узоқлашмаган ҳолда ИИБ Академиясини тамомлаган. Наманган халқаро аэропортида ҳудудий профилактика инспек-



тори лавозимида ҳам фаолият олиб борган.

2011 йилда Андижон вокзалидаги ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлимига терговчи лавозимига тайинланди. Тергов бўлими катта терговчиси, майор Шерзод Ҳожиевдан тергов ишининг сирлари ва нозик жиҳатларини ўрганди.

– Терговчи ўз ишининг устаси бўлиши, соҳасини яхши билиши, таъбир жоиз бўлса, психолог бўлиши лозим. Фақат яхши психолог бўлибгина, зарур маълумотларни олиши мумкин, – дейди майор Жўраҳон Ҳамдамов.

Борис КЛЕЙМАН,
«На посту» мухбири.

Андижон вилояти.



Қўшқанотлар

ХИЗМАТДА ҲАМ, ОИЛАДА ҲАМ ЕЛКАДОШ



Ҳар бир инсон ҳаётнинг гоҳ ўнқир-чўнқир, гоҳ равон йўллари бўйлаб одимлар экан, ўзини ҳар томонлама тушунадиган, қувончу ташвишли кунларни бирга баҳам кўришга тайёр киши ёнида турганини ҳис қилишни истайди. Бу кишини янги марралар сари руҳлантиради.

Таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз ички ишлар органларида хизмат қилиб, юрт осойишталигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшаётган ходимлар орасида бир-бирига елкадош бўлиб келаётган намунали оила вакиллари кўпчиликни ташкил этади.

Тошкент вилояти ИИББ Биринчи минтақавий мувофиқлаштириш маркази Йўл-патруль хизмати отряди ЙПХ инспектори, катта сержант Фахриддин Ризаев ҳамда вилоят ИИББ ХҚБ хотин-қизлар масалалари бўйича гуруҳи катта инспектори, катта лейтенант Феруза Ризаева оиласини ана шундай осойишталик посбонлари оиласи дейиш мумкин.

Чирчиқ шаҳрида туғил-

ган Фахриддин ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини ИИБ Академияси Сержантлар таркибини тайёрлаш бўйича олий курслари шахсий таркиб билан ишлаш бўлинмаси кичик инспектори лавозимидан бошлади. Сўнг ички ишлар органлари турли соҳавий хизматларида фаолиятини давом эттирди.

Феруза Янгийўл шаҳридан. У Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетини тамомлагач, ИИБ Ахборот маркази тезкор маълумотлар бўлими картотекачиси лавозимида соҳадаги дастлабки фаолиятини бошлади. Кейинчалик Тошкент вилояти ИИББда фаолиятини давом эттирди. Бугунги кунда вилоятда хотин-қизлар

ўртасида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларни ижтимоий ва ҳуқуқий ҳимоя қилиш, оилалар тотувлигини таъминлаш ишларида жонбозлик кўрсатиб, ҳамкасблари ҳурматини ва раҳбарият ишончини қозониб келмоқда.

– Хизмат жараёнида ҳар хил вазиятлар бўлади, баъзида уйга кечроқ келишга тўғри келади, – дейди катта лейтенант Феруза Ризаева. – Ана шундай ҳолатларда умр йўлдошим ҳам ички ишлар органларида хизмат қилгани боис мени тўғри тушунади.

Дарҳақиқат, эр-хотиннинг бир-бирини тушуниши, елкадош бўлиши оилада тотувликни таъминласа, хизмат жойида иш унумдорлигини оширади. Зеро, уйи тинч бўлган кишининг ишида унум ва барака бўлади.

Шерзод АБДУСАМАДОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент вилояти.





IIV ta'lim muassasalarida

SHOGIRDLARIMIZ YUTUG'I — IZLANISHLAR MEVASI

IIV Farg'ona akademik litseyida o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim metodlarini olib kirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va shu orqali ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ustoz-murabbiylarning tinimsiz izlanishlari esa o'quvchilarning kitobxonlik, ilm-fan va sport sohasida erishayotgan yutuqlarida namoyon bo'lyapti.

2022/2023-o'quv yilida o'tkazilgan fan olimpiadalarida akademik litseyning 4 nafar o'quvchisi informatika va tarix fanlaridan yuqori

elektron nashrlarni ham bemaol o'qish mumkin.

Bilimga chanqoq o'quvchi-yoshlarimiz bunday shart-sharoitlardan unumli foydalanib, ustozlari ko'magida turli tadbirlarda faol ishtirok etib, e'tirofga sazovor bo'lib kelishmoqda. Masalan, o'tgan yilning oktabr oyida o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yinining respublika bosqichida akademik litsey jamoasi 3-o'rinni egalladi. Shu bilan bir qatorda, Adliya vazirligi tomonidan Bosh qomusimiz qabul qilinganining 30 yilligiga



natijalarni qayd etdi. 2 nafar o'quvchi Ichki ishlar vaziri stipendiyasi sohibiga aylangan bo'lsa, yana vazirlikning «O'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Litseyda 10 mingdan ziyod kitob fondiga ega ikkita kutubxona mavjud bo'lib, birida ilmiy-siyosiy va huquqiy adabiyotlar, gazeta-jurnallar taxlamlari jamlangan, ikkinchisida turli janrdagi badiiy adabiyotlar mavjud. Bundan tashqari, axborot-resurs markazidagi kompyuterlar orqali

bag'ishlangan respublika tanlovida 2 nafar o'quvchi ikkinchi va uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritib, maxsus diplom hamda mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Ta'lim muassasamizda zamon talabidan kelib chiqib xorijiy tillarni mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuqori malakali 7 nafar ingliz tili fani o'qituvchisi yoshlarga dars va to'garak mashg'ulotlarini olib bormoqda. Natijada o'quvchilardan 64 nafari chet tilini bilish darajasi bo'yicha

maxsus sertifikatlariga ega bo'ldi. Ayni damda yana 130 nafar o'quvchi sertifikat olish uchun puxta tayyorlanmoqda.

O'qituvchi va murabbiylarimiz erishayotgan yutuqlar ham salmoqli. Xususan, yakunlangan o'quv yilida akademik litseylar o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ingliz tili fani o'qituvchisi Dilshoda Mahmudova faxrli birinchi, informatika fani o'qituvchisi Jasurbek Mirahmedov ikkinchi, jismoniy tarbiya fani bo'yicha O'tkirbek Karimov uchinchi o'rinni egalladi.

Litsey o'quvchilarining sport sohasidagi yutuqlari, ayniqsa, e'tirofga sazovordir. Ayni paytda o'quvchilar orasida 3 nafar Osiyo chempioni, 26 nafar O'zbekiston chempioni hamda 8 nafar sport ustasi bor.

Ta'lim muassasasida sportning ko'plab turlari bo'yicha shug'ullanish imkoniyati yaratilgan. Yozgi o'yingoh, qishki sport zali o'quvchilar ixtiyorida. Litsey rahbariyati va ustoz-murabbiylarning izlanishlari, olib borilayotgan tinimsiz mashg'ulotlar esa sportsevar yoshlarning nufuzli musobaqalar-

dagi yutuqlariga muhim poydevor vazifasini o'tamoqda

1-bosqich o'quvchisi Shahzodbek Tolibov sportga mehri baland, iqtidorli yoshlardan biri. U karatening shotakan-do turi bilan muntazam shug'ullanib, qator respublika va xalqaro darajadagi musobaqalarda zafar qozongan. Joriy yilning 20–21-may kunlari Tojikiston Respublikasida o'tkazilgan xalqaro musobaqada Shahzodbek faxrli 1-o'rinni egallab, tengdoshlari va ustozlari oldiga diplom hamda oltin medal bilan qaytdi.

Litseyning faol o'quvchilaridan bo'lgan Sabrinabonu Ne'matova esa 13–14-may kunlari sportning baydarka va kanoeda eshkak eshish turi bo'yicha o'tkazilgan viloyat birinchiligida zafar quchdi. Endi u respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, akademik litseyda ta'lim olayotgan iqtidorli yoshlar ertaga ichki ishlar organlari uchun munosib kadrlar bo'lib kamolga yetadilar. Bugun ular olayotgan bilim soha rivojida muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Suhrobjon MIRZAYEV,
mayor.

Farg'ona viloyati.



Amaliyot

BILIM VA MALAKA OSHIRILMOQDA

IIV Akademiyasi magistraturasi ikkinchi darajali tashkiliy-taktik boshqaruv mutaxassisligi tinglovchilari Toshkent shahrining Yashnobod tumani IIOFMBda amaliyot o'tadi.



Jumladan, Yashnobod tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor ishchi guruhi tarkibida uy-ma-uy yurib, aholi muammolarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rildi.

Mazkur jarayonda qonunbuzarliklar, xususan, firibgarlik hamda kiberjinoyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari uyushtirildi. O'z navbatida, tuman IIOFMB mas'ullari tinglovchilarning bilim va malakasini oshirishga yaqindan yordam beradi.

Akrom MISIROV,
podpolkovnik.



■ Хорезмская область

ВСТРЕЧА ТРЕХ ПОКОЛЕНИЙ



В УВД Хорезмской области состоялась встреча трех поколений. На мероприятие были приглашены ветераны органов внутренних дел, молодые сотрудницы и ученицы Хорезмского академического лицея МВД.

Встречу открыла заместитель начальника службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения областного УВД подполковник Дилноза

Богибекова, которая отметила роль института наставничества в деле воспитания молодого поколения.

Перед собравшимися выступили советник начальника УВД области полковник

в отставке Рустам Рахимов, председатель Совета ветеранов УВД полковник в отставке Аминбой Тожиев, полковник в отставке Гулнора Рузметова, подполковник в отставке Шарофат Хуса-

инова, майор в отставке Зухра Тиллаева. Они подчеркнули, что в нашей стране осуществляется целенаправленная деятельность по воспитанию молодежи в духе преданности Родине, рассказали о годах своей службы.

В ходе мероприятия ветеранам за вклад в дело воспитания молодежи, со-

трудницам, достигавшим высоких результатов в профессиональной деятельности, учащимся лицея за образцовую учебу и активное участие в общественной жизни были вручены почетные грамоты и памятные подарки.

Худойберган ЖАББОРОВ,
корреспондент
«Postda».



✓ Наставничество

Начальник ЭКО УКД ОВД Яшнабадского района города Ташкента подполковник Эдуард Шестокрылов вот уже более 32 лет трудится на благо мира и спокойствия граждан.

В органах внутренних дел Эдуард Николаевич с 1991 года. К тому времени имея специальность в области связи, он, прислушавшись к совету родственника, пришел в ГУВД столицы. На протяжении ряда лет работал со сложной техникой связи, а в 1996 году избрал для себя новое направление – экспертно-криминалистическую службу. Следует отметить, что Э. Шестокрылов настолько преуспел в данном направлении, что на сегодняшний день считается одним из лучших экспертов-криминалистов, ставшим образцом профессионализма для многочисленных учеников, имеющих честь работать с ним в одном коллективе и стремящимися быть похожими на него.

– Сегодня для многих молодых сотрудников являюсь наставником, – рассказывает Эдуард Николаевич. – Имею допуски для проведения дактилоскопических, портретных, баллистических экспертиз, исследования холодного оружия, технического исследования документов. В годы становления мне посчастливилось учиться у Евгения Зиновьевича Пугачева и Геннадия Федоровича



Никишина. Правоохранители с научным подходом к профессиональной деятельности посвятили жизнь развитию отечественной экспертной криминалистики, всегда были готовы помочь и советом, и делом, воспитав плеяду талантливых последователей. Ощущать, чувствовать и видеть то, что практически невидимо – это великое искусство. Был в моей практике такой случай. В одну из квартир столицы проникли грабители. Следует отметить, что они хорошо подготовились к совершению преступления – были в

масках и перчатках. В прихожей между преступниками и хозяином квартиры завязалась борьба, мужчина сопротивлялся отчаянно, защищая домочадцев и имущество. Однако злоумышленники «взяли количеством», связали жертву и вынесли из дома все самое ценное. Когда прибыла следственно-оперативная группа, в составе которой был и я, то естественно никаких отпечатков пальцев мы не обнаружили. Хотя хозяину квартиры удалось сорвать маску с одного из нападавших, лица он все же не запомнил. На месте борьбы

ВЕК ЖИВИ – ВЕК УЧИТЬСЯ!

осталось лишь несколько волосков. Дело затянулось, установить личности преступников пока не представлялось возможным. Спустя некоторое время оперативники сообщили, что соседи на улице видели автомобиль, мчавшийся вдоль дома на большой скорости. Вскоре мы выяснили госномер автомашины. Пассажиры и водитель были установлены и задержаны, а после проведения биологической экспертизы стало известно, что найденные волоски принадлежали одному из грабителей.

Эдуард Николаевич – человек увлеченный. С друзьями занимается физическими упражнениями, бегом, уделяет время пешим прогулкам, а еще очень любит читать книги, предпочитая исторический и публицистический жанры.

– Чтобы добиться в жизни успеха, никогда не следует останавливаться на достигнутом, – продолжает подполковник Э. Шестокрылов. – Нужно стремиться к знаниям, расширять кругозор, быть в курсе событий, не отставая от времени. Как говорится, «век живи – век учишься!».

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».
Фото Абу КЕНЖАЕВА.





Нуқтаи назар

ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТАҚОЗО ЭТИЛАДИ

Жорий йилнинг 11 апрелида «Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонун қабул қилинди. Бу янгиланиш бир қатор ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартишлар киритилишига омил бўлди.

Жумладан, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ҳақ тўланадиган жамоат ишларига мажбурий равишда жалб этиш жазосига оид бандлар киритилди. Хусусан, судлар қонунбузарларни 8 соатдан 240 соатгача бўлган муддатга ҳақ тўланадиган жамоат ишларига мажбурий равишда жалб этиш ваколатига эга бўлди. Бу турдаги жазони ўтаётганлар-

нинг иш жойлари ва иш турларини эса ички ишлар органлари пробацция бўлинмалари белгилайди.

Шунингдек, пенсия ёшига етганлар, 18 ёшга тўлмаганлар, ҳомиладор аёллар, 3 ёшга тўлмаган боласи бор аёллар, I ва II гуруҳ ногиронлари, доимий иш жойига эга бўлганлар ва ҳарбий хизматчиларга нисбатан ушбу жазо қўлланилмайди. Ҳақ тўланадиган ишларга жалб этилган шахслар иш ҳақининг 50 фоизи алимент мажбуриятлари бўйича қарзни тўлашга йўналтирилади. Агар ҳуқуқбузар ўқиётган бўлса, жамоат ишларини ўқишдан бўш пайтлари бажаради.

Аммо кодексда ҳақ тўланадиган жамоат ишларига мажбурий равишда жалб этиш жазосини ижро қилиш тартиблари кўрсатиб ўтилмаган. Жумладан, жавобгарликка тортилган шахс бир кунда неча соат жазо ўташи мумкинлиги белгиланмаган.

Кодексда жазони ўташдан бўйин товлаш билан боғлиқ тушунмовчиликлар ҳам мавжуд. Яъни, жавобгар ушбу жазони ўташдан бўйин товласа, суд ҳақ тўланадиган жамоат ишларининг ўталмаган муддатининг ҳар тўрт соати учун маъмурий қамоқнинг 1 кунига тенг жазо билан ёхуд ҳақ тўланадиган жамоат ишларининг 8 соати учун базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараварига тенг жарима билан алмаштиради.

Агар судларда қонунбузарларни 8 соатдан 240 соатгача бўлган муддатга ҳақ тўланадиган жамоат ишларига мажбурий равишда жалб этиш ваколати борлиги инobatга олинса, жазони ўташдан бўйин товланилгани учун 60 кунгача маъмурий қамоқ жазоси тайинланиши керак. Аммо кодексга киритилган ўзгартишда маъмурий қамоқнинг муддати 15 суткадан, жарима эса базавий ҳисоблаш миқдорининг 20 бараваридан ошмаслиги кўрсатилган.



Табиийки, ушбу зиддиклар ҳақ тўланадиган жамоат ишларига мажбурий равишда жалб этиш жазосининг ижросини таъминлашда чигалликларни келтириб чиқаради. Шу маънода кодекснинг тегишли бандлари мукамаллаштирилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Отабек АХМЕДЖОНОВ,
Жиззах вилояти ИИБ Пробацция бўлими муҳим топшириқлар бўйича инспектори, подполковник.



Давра суҳбати

ЭЗГУ МАҚСАДНИ КЎЗЛАБ

Навоий шаҳрини жиноятчиликдан холи ҳудудга айлантириш мақсадида навбатдаги тарғибот тадбири Навоий давлат педагогика институтида ўтказилди. Институтнинг Ахборот-ресурс марказида бўлиб ўтган тадбирда Табиий фанлар факультети ёшлар масалалари бўйича декан ўринбосари Ш. Сулаймонов, факультет тьюторлари ва талабалари иштирок этди. Давра суҳбати «Жиноятчилик, кибержиноятчилик, ҳуқуқбузарлик, экстремизм ва уларнинг олдини олиш» мавзусига бағишланди.

Давра суҳбатига Навоий вилояти ИИБ Тезкор қидирув хизмати Киберхавфсизлик бўлинмаси ходими, майор Хуршид Муҳаммадиев, Навоий шаҳар ИИБ профилактика катта инспектори, подполковник Нурмуҳсин Нормуҳаммедов, Навоий шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими бош терговчиси, подполковник Марҳабо Ҳожиева, мазкур бўлим терговчиси, капитан Феруза Султонова, НавДПИ профилактика инспекторлари, майор Нодир Ҳайитов, капитан Сурайё Ҳусанова таклиф этилди. Улар ҳозирги кунда интернет тармоқларида кузатилаётган турли таҳдидлар, кибержиноятчилик, маъмурий ҳуқуқбузарлик, экстремистик оқимлар, ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, хотин-қизлар орасида соғлом ижтимоий-маънавий муҳитни шакллантириш, аёллар томонидан содир этилаётган салбий ҳолатларга барҳам бериш, қизларнинг эрта турмуш қуриши оқибатлари тўғрисида ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришди. Шунингдек, талабаларни қизиқтирган саволларга атрофлича жавоб қайтаришди.

Маҳлиё МИРЗАЕВА,
подполковник.

Навоий вилояти.



Қоровул қўшинларида

ТЕХНИК КЎРИҚДАН СЎНГ



Жорий йилнинг май ойида ИИБ Қоровул қўшинлари қўмондонининг техника ва қурол-аслаҳа бўйича ўринбосари, полковник Ф.Эргашев томонидан 7531-ҳарбий қисмдаги мавжуд автотранспорт воситалари мажбурий техник кўриқдан ўтказилган эди. Тадбир чоғида ҳарбий қисмда мавжуд барча автотранспорт воситаларининг жанговар шайлиги, техник созлиги, жиҳозланиши, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш ишларининг ўз вақтида олиб борилган ва бошқа масалалар текширилди ва ҳайдовчиларга керакли кўрсатмалар берилди.

Мазкур текширувлардан сўнг 7531-ҳарбий қисмда автомашиналарга техник хизмат кўрсатиш, хизмат автомашиналари эгаларининг масъулияти ва шахсий жавобгарлигини ошириш юзасидан кенг кўламли ишлар олиб борилди. Жумладан, техникаларга хизмат кўрсатиш сифати яхшиланди, хизмат автомашиналарининг мажбурий суғурталари янгиланди. Шунингдек, қисман носоз ҳолатга келиб қолган автомашиналар тўлиқ таъмирланиб, сафга қўйилди. Ҳайдовчилар билан қўшимча амалий машғулотлар ўтказилди.

Бу йўналишдаги ишлар давом эттирилмоқда.

Ойбек ҲАМЗАЕВ,
подполковник.



Jazoni ijro etish muassasalarida

Xatolar insonni hayotda ko'p haqiqatlarni anglashga o'rgatadi. IIV huzuridagi JIED To'rtinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markaziga qarashli Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan 41-son manzil-koloniya jazo muddatini o'tayotganlarni faol ijtimoiy hayotga qaytarish uchun tarbiyaviy-profilaktik ishlar tizimli ravishda olib borilayotir.

Bilamizki, kitobxonlik insonning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi, dunyoqarashini kengaytiradi, kishini ezgu ishlarga da'vat etadi. Shu ma'noda muassasadagi mahkumlarning qalbida kitob mutolaasiga muhabbat uyg'otish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda. Koloniya kutubxona tashkil etilgan bo'lib, undan turli mavzulardagi asarlar o'rin olgan.

– Manzil-koloniya hamizda «Barqaror hayot» xalqaro ijtimoiy ma'rifat markazi bilan hamkorlikda «O'zbekistonda davlat va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda ta'lim, o'zaro muloqot va zaif guruhlarining radikallashishiga qarshi barqarorligini oshirish orqali zo'ravon ekstremizmning oldini olishga ko'maklashish» loyihasi doirasida mahkumlar uchun o'quv mashg'ulotlari ham tashkil

O'RGANISH — BIR HUNAR, O'RGATISH — IKKI HUNAR



etilgan, – deydi manzil-koloniya TIB boshlig'i, mayor Bahrom Boyqobilov. – Mashg'ulotlar jaryonida mahkumlar o'zlari qiziqqan kasb-hunarni o'rganishmoqda. Bu ularga keyinchalik foydali mehnat bilan band bo'lib, halol daromad topishlarida asqatadi.

– Koloniya hamizda issiqxona qurilgan, – deydi mahkum Ergash Xudoyqulov. – U yerda asosan sabzavot ekinlari, shuningdek, turli gullar yetishtiramiz. Ekinlarni vaqtda sug'orish, o'g'itlarini berish va parvarish qilish kabi ishlarni maroq

bilan bajaraman. Barq urib rivojlangan ko'chatlarni, yetishtirilgan hosilni ko'rib, hamma charchoqlarim tarqab ketadi.

Issiqxonada mahkumlarga poliz mahsulotlarini yetishtirish sirlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ham olib boriladi.

Bugun axborot texnologiyalari barcha sohalarga jadallik bilan kirib bormoqda. Shunday ekan, kompyuter texnikasini bilmagan odam biror tashkilotda ishlashi qiyin. Koloniya hamizda tashkil etilgan kompyuter savodxonligi kurslari

esa bu muammoni bartaraf etishga yordam beradi.

Bularga qo'shimcha ravishda ayollar sartaroshligi, chilangarlik, duradgorlik kurslari ham yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, koloniya hamizda tashkil etilgan sexlarda mahkumlar plastik eshik va rom yasashni o'rganishmoqda. Qolaversa, mahkum Daler Yo'ldoshev tomonidan turli ro'zg'or buyumlari, stol-stul, javonlar yasash bo'yicha mashg'ulotlar ham olib borilayotirki, bu boshqalar uchun ham manfaatli bo'lmoqda.

– Sartaroshlik ham bir hunar, – deydi mahkum O'ktam Toshpo'latov. – Uni o'rganganim hozir menga asqatyapti. Bu yerda sartaroshlik qilishim uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Muhimi, bu hunarni boshqa mahkumlarga ham o'rgatyapman.

Bugun ushbu manzil-koloniya hamizdagi kasb-hunar o'rgatilayotganining zamirida bitta ezgu maqsad bor. U ham bo'lsa, mahkumlarga halol mehnat qilib, jamiyatda o'z o'rnini topishga o'rgatishdir. Zero, inson o'zi, oila a'zolarini halol rizq-ro'z bilan ta'minlashi, bu yo'lda kerak bo'lsa, mashaqqat chekishi savobli amallardandir. Aksincha, ilmsizlik, kasb-hunarsizlik kishini xorlik sari yetaklaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.

Surxondaryo viloyati.

Qilmish – qidirmish

YETTI – MANZILGA YETDI

Qing'ir ishga qo'l urganing doim yuzi shuvut, boshi xam bo'ladi. 1988-yilda G'ijduvon tumani Raboti oyim qishlog'ida tug'ilgan Mirsoat Davronovning (ism-shariflar o'zgartirildi) qilmishi bunga misol. U o'z xatti-harakati oqibatida bir necha marta qamoqxonaning «tuprog'i»ni «yalab» kelgan bo'lsa-da, «ko'zi ochilmadi». Oqibatda yettinchi bor sudning qora kursisiga o'tirdi.

Mirsoat o'ttiz besh yoshni qarshilasa-da, hali biror bir ish-

ning boshini tutmagan. Birdan-bir yumushi – o'g'rilik, odati – ichkilik.

Kunlarning birida qo'shni Vobkent tumaniga «safar» qilgan Mirsoat soat 22:00 lar atrofida «Saraosiy» mahallasida joylashgan omuxta yem savdo shoxobchasiga yaqinlashdi. Picha kuza-tib, atrofda hech kimsa yo'qligiga ishonch hosil qilgach, ishga kirishdi. U temir bo'lagi bilan eshikni ochdi va ichkariga yo'naldi. Qo'lidagi telefon bilan shoxobcha ichini yoritib, burchakdagi yog'och qutini ocharkan, pullarni ko'rib, chapak chalib yuborishiga bir bahya qoldi. So'ngra, o'ng tomondagi sellofan paketni shunchaki qiziqishi ustun kelib, pay-

paslab ko'rdi. Buni qarangki, bu yerda ham pul bor ekan. Ketar chog'i kuzatuv kamerasing xotira vintini yechib oldi va qoyilmaqom qilib «quyonning rasmini chizdi».

Tekin pulga kayf-u safo qilgan Mirsoat ko'p o'tmay yana Vobkent tumanida paydo bo'ldi. Bu gal «Teraklik» mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi savdo do'koniga deraza fertochkasi orqali kirib, pul saqlanadigan maxsus quti ichida bo'lgan 9 million 600 ming so'm pulni rastada turgan futbolka solib, juftakni rostladi.

Biroq vobkentlik osoyishtalik posbonlari olib borgan tezkor-qidiruv va surishtiruv ishlari natijasida Mirsoat qo'lga olindi. Sudda u o'z

qilmishidan pushaymonligini aytib, oilaviy sharoitini hisobga olishlarini, yana bir bor kechirishlarini so'radi. Ammo kechirimlikning ham cheki bo'ladi. Mirsoat yuqoridagi o'g'rilik jinoyatlari uchun uzil-kesil 8 yil-u 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Mirsoat Davronov jinoyat ko'chasiga qayta-qayta kirmaganda edi, bugun yana panjara ortida o'tirmasdi. Qolaversa, xalqimizda «Yetti – manzilga yetdi» deb bejiz aytilmagan. Ishonamizki, u jazo muddatini o'tab, oilasi bag'riga qaytgach, so'zida turadi.

Mirzoqul AHADOV,
«Postda» muxbiri.

Buxoro viloyati.

IIV Tashkiliy departamenti rahbariyati va shaxsiy tarkibi Yuridik ta'minlash boshqarmasi huquqiy tahlil va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, mayor Ikrom Ni-yazmetovga turmush o'rtog'i Iroda NIYAZMETOV ning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.	IIV Birlashgan tahririyati jamoasi bo'lim mudiri, iste'fodagi podpolkovnik Temir Qurbonovga volidayi muhtaramasi O'G'ILOY onaning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.	Yunusobod tumani IIOFMB rahbariyati va Faxriylar kengashi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Alimjon BOBOXONOV ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.	Buxoro viloyati IIB Faxriylar kengashi iste'fodagi polkovnik Ne'mat QUDRATOV ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.	Samarqand viloyati IIB Faxriylar kengashi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik Sayfulla FAYZULLAYEV ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.
---	--	--	--	---



Salomatlik saboqlari

OFTOB URISHI

undan saqlanish choralari



Oftob urishi kuyishning bir turi hisoblanib, quyoshning tikka nurlari ostida yalang boshni va badanni himoya qilmagan holda turish oqibatida sodir bo'ladi. Uning o'ziga xos alomati issiqdan silla qurishidir. Bu jadallashuvchi jarayon bo'lib, organizm haroratni nazorat qila olmayotgani va unga sovishga ko'mak zarurligidan xabar demakdir.

OFTOB URISHINING OLDINI OLISH

Boshni yengil, yorqin rangdagi bosh kiyim, ko'zlarni quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak yordamida muhofaza qilish, ochiq cho'milish joylarida uzoq vaqt bo'lishdan saqlanish, quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushib turgan ochiq joylarda bo'lishdan qochish (ayniqsa, quyosh faolligi davrida – 12:00 dan 16:00 gacha) kerak.

Quyoshda toblanishning davomiyligi 15–20 daqiqani tashkil qilishi, agar uzaytirish

lozim bo'lsa, bu asta-sekin amalga oshirilishi, biroq uning davomiyligi ikki soatdan oshmasligi va orada tanaffuslar bo'lishi zarur. Quyoshda toblanish muolajasi uchun eng maqbul vaqt – ertalabki va kechki vaqt. Bu muolajani ovqatlangandan so'ng kamida bir soatdan keyin amalga oshirgan ma'qul. Bu jarayon cho'milish bilan almashtirib turilsa yana ham yaxshi bo'ladi. Yana bir jihat, yotgan holatda emas, balki harakatlanish jarayonida quyoshda toblanish foydalidir.

Issiq havoda yengil, havo o'tkazadigan, tabiiy (kanop, paxta) matodan tikilgan, tanadagi terning chiqib ketishiga to'sqinlik qilmaydigan yorqin rangdagi kiyim kiyish lozim. Ko'proq sut-qatiq mahsulotlari va sabzavotlar iste'mol qilish ham foydali.

Organizmدا suv balansini ushlab turishga harakat qilish (kuniga 3 litr atrofida suv, mineral suv ichish) va quyoshdan saqlanish uchun yorqin rangli soyabondan foydalanish, vaqti-vaqti bilan yuzingizni sovuq suvda namlangan dastro'mol bilan artib turish, imkon darajasida salqin joyda dam olish kerak.

BIRINCHI YORDAM

Oftob urishining birinchi belgilari namoyon bo'lgan zahoti jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni boshlang. Shu bilan birga zudlik bilan «tez yordam» chaqiring.

QO'SHIMCHA TAVSIYALAR:

– oftob urgan kishini soya-salqin, biroq bahavo (odamlar ko'p to'planmagan), namlik darajasi yuqori bo'lmagan joyga olish;

– uni gorizontol holda yotqizib, oyoqlarini biroz ko'tarib qo'yish, toza havo bilan ta'minlash uchun yelpish;

– bo'yin va ko'krak qafasini siqib turgan kiyimlarini yechish;

– ko'p miqdorda salqin ichimlik (biroz miqdorda tuz va shakar qo'shilgan mineral suv yoki oddiy suv foydaliroq) ichirish;

– yuzini sovuq suv bilan yuvish;

– biror matoni ho'llab ko'krak qafasiga bosish, ho'llangan mato bilan butun tanasini o'rash yoki 18–20 daraja iliq suvda cho'miltirish;

– peshonasiga sovuq kompress (sovuq suv solingan idish yoki muz) qo'yish;

– qatiq ichirish oftob urgan kishiga bir necha kun davomida 2–3 stakan yog'siz qatiq ichirish;

– ko'ngli aynib qusgan bo'lsa, nafas yo'llarini quyuqlardan tozalash, novshadil spirti hidlatish;

– hushsizlik holatida bo'lsa, nafas olishi va yurak urishini tekshirib ko'rish;

– yurak urmayotgan holatlarda sun'iy nafas berish va yuragini massaj qilish.

Oftob urgan kishilar bir necha kun yotishi kerak. Chunki asab tizimi, qon aylanishi va boshqa bir qator buzilgan biokimyoviy reaksiyalar tiklanishi uchun shuncha vaqt kerak bo'ladi. Ushbu tavsiyalarga amal qilinmasa, oftob urishi, ayniqsa, bolalarda qayta takrorlanishi mumkin.

Botir ERGASHEV,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linma boshlig'i,
kapitan.

МЕЛАТОНИН – ЗАЛОГ ДОЛГОЛЕТИЯ

Организму человека для нормальной жизнедеятельности требуются различные гормоны, в том числе мелатонин. Большая его часть вырабатывается во сне, с полуночи до четырех часов утра. Это время необходимо обязательно выделять для сна. Гормон также попадает внутрь с пищей и дополнительными добавками.



КАК УСИЛИТЬ ВЫРАБОТКУ

Мелатонин отвечает за биоритмы и позволяет погрузиться в сон максимально глубоко. Для этого надо:

- соблюдать режим питания и сна, отказаться от кофе вечером, а также от снотворного;
- если по объективным причинам лечь спать в указанное время не представляется возможным, необходимо минимизировать освещение;
- регулярно выделять время для восстановления сил;
- ночью максимально затемнять помещение или использовать маску.

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ НА ОРГАНИЗМ

Обеспечивает бесперебойную деятельность эндокринной системы.

Действует как замедлитель процессов старения.

Укрепляет иммунитет.

Укрепляет нервную систему, повышая способность противостоять депрессивным состояниям;

Благотворно действует на пищеварение, ускоряя обмен веществ.

Необходим эндокринной системе для выработки других гормонов.

Нужен клеточной ткани головного мозга для нормального восстановления в периоды сна, корректной работы во время бодрствования и активной жизнедеятельности организма.

Его недостаток в организме ведет к ожирению. Женский организм, страдающий недостатком мелатонина, находится в группе риска по онкологическим заболеваниям.

Необходимо помогать организму в естественной выработке гормона, введя в обязательный рацион овощи, белое мясо, орехи, сырные продукты.



ПОЧЕМУ НУЖНО ЗАВТРАКАТЬ

Здоровье сердца и сосудов. Ученые утверждают, что завтрак снижает уровень тромбоцитов и холестерина в крови, уменьшает риск сердечно-сосудистых заболеваний.

Надежный щит от стресса. Заряжает энергией и помогает бороться со стрессами.

Лучший друг иммунитета. Правильный завтрак, содержащий пре- и пробиотики, клетчатку, помогает полезным микроорганизмам бороться с инфекцией.

«Будильник» организма. Чем раньше позавтракаете, тем раньше организм включится в работу.

Залог красоты и молодости. Полноценный завтрак снабжает аминокислотами, полиненасыщенными жирными кислотами, витаминами, минералами, клетчаткой, антиоксидантами – всем необходимым для того, чтобы кожа боролась с признаками увядания.



Tabarruk qadanjolar

MIZDAXQON MAJMUASIDAGI YETTLAR SIRI

Mizdaxqon arxeologik arxitektura majmuasi O'zbekistondagi sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan tarixiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. U Nukus shahridan 20 kilometr uzoqlikda joylashgan Xo'jayli tumanida bo'lib, umumiy maydoni 200 gektardan iborat.

Majmuaning asosiy qismi Xo'jayli tumanining janubi-g'arbidagi uchta tepalikdan iborat bo'lib, unda Gaur qal'a, Xalifa Rajab, Shamun Nabi va Mazlumxon suluv maqbaralari mavjud. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, bu yerda juda kam uchraydigan osuar qabrlar, tangalar, turli xo'jalik buyumlari, shisha va oltindan yuqori mohirlik bilan ishlangan buyumlar topilgan. Shuningdek, qabrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar majmuaning bundan ikki ming yillar oldin paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Ilk bor «Mizdaxqon» («Mardadjan») nomi o'rta asrlarga tegishli arab manbalarida qayd etilgan. Jumladan, 903–913-yillarda Ibn Rusta, 961-yillarda Abu Zayd ibn Saxl bu haqda aytib o'tgan.

Bu yerda dastlabki tadqiqot ishlari 1928–1929-yillarda Sankt-Peterburg universiteti professori

A. Yakubovskiy tomonidan olib borilgan. Akademik V. Bartold o'rta asrlardagi arab manbalariga tayanagan holda, Mizdaxqon qal'asining joylashgan o'rnini aniqlagan. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab esa bu yerda qoraqalpog'istonlik arxeologlar tomonidan qazish va o'rganish ishlari davom ettirilgan.

Mavjud ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, ushbu hududda IX–XI asrlarda yangi qo'rg'on-qal'a qurilishi olib borilgan. XIII asrga kelib esa yangi masjidlar, tarixiy yodgorliklar qurilgan. Ammo mo'g'ul bosqinchiligi tufayli aholi bu yerni qisqa vaqtga tark etishga majbur bo'lgan va XIII asr oxirlariga kelib yana o'z makonlariga qaytishgan. O'rta asrlarda shahar ko'hna Urganch yo'lidagi yirik shaharlardan biri darajasiga yetishadi.

Rajab xalifa madrasasi mo'g'ul bosqinchiligidan oldingi davrga tegishli bo'lib, uning qoldiqlari hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Aynan bu bino «dunyo soati» nomi bilan ham ataladi. To'g'ri, u yerda hech qanday soat yo'q, lekin, aytishlaricha, ushbu madrasaning kuydirilgan g'ishtdan qurilgan devoridan har yili bitta g'isht yerga qular ekan. Keyinchalik odamlar orasida bino-

ning oxirgi g'ishti yerga qulaganida, oxir zamon bo'ladi, degan rivoyatlar tarqalgan.

Majmuaning yana bir qiziqarli jihati – uning qurilishida yetti soni o'zga cha ahamiyat kasb etishidir. Madrasa qoshiga payg'ambarimizning yetti sahobasi dafn etilgan bo'lib, Rajab ismining o'zi arab kalendaridagi yettinchi oy nomini anglatadi.

Bu bilan yettisoniga bog'liq gap-so'zlar tugamaydi. Rivoyatlarga qaraganda, bu yerga kelgan kishi yetti toshni terib, ustma-ust qo'yib taxlash jarayonida tilagini aytsa, u albatta amalga oshar ekan.

Xuddi shu kabi yetti soni bilan bog'liq holatlardan biri Shamun Nabi maqbarasi hisoblanadi. U o'z davrida Markaziy Osiyoda avliyo kishi va islom dini ravnaqi uchun kofirlar bilan kurashgan shaxs bo'lgan. Janglardan birida vafot etganidan so'ng uning yetti qizi tomonidan yetti gumbazli maqbara qurib bitkaziladi. Maqbara ichida 25 metrlik qabr joylashgan bo'lib, unga Shamun Nabi dafn etilgan, deyishadi.

Xalq orasida Mazlumxon suluv maqbarasi bilan bog'liq turli rivoyatlar mavjud. Aytishlaricha, podshohning suluv qizlaridan biri bo'lgan Maz-

lumxonga yosh usta yigit oshiq bo'lib qoladi va unga uylanish taklifini bildirganda, podshoh chiroyli va mustahkam shahar qurib bergan kishiga qizini berishi mumkinligini aytadi. Shunda usta yigit sevgilisi uchun xuddi aytilganidek shahar qurib bitkazadi. Bu paytgacha yosh usta mehnatkashligi va bir so'zligi uchun Mazlumxon suluvning ham muhabbatini qozonadi. Ammo podshoh so'zidan qaytgach, oshiq-ma'shuqlar shahar minorasi ustidan yerga sakrab joniga qasd qilishadi.

O'zining xatosi tufayli sodir bo'lgan holatdan dard orttirgan podshoh shaharni buzib tashlashga bo'yruq beradi. Lekin ikki yosh aynan qulab vafot etgan joyga maqbara quriladi.

Hozirgi paytda yarmi yer tagida joylashgan maqbara ichida uchta qabr bo'lib, undan ikkitasi arxeologlar tomonidan o'rganilganda, yosh yigit va qizga tegishli suyak qoldiqlari topiladi. Uchinchi qabr esa vaqtida maqbarani o'g'ri-qaroqchilardan qo'riqlagan askarboshiga tegishli ekanligi aytiladi.

Azamat PIRNIYAZOV
tayyorladi.

OSOYISHTALIK POSBONLARI DONORLIK AKSIYASIDA

Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasining bir guruh xodimlari, xususan, yo'l-patrul, patrul-post xizmatlari hamda tezkor vazifalarni

bajaruvchi safarbar otryadi xodimlari viloyat qon quyish markazi bilan hamkorlikda o'tkazilgan beg'araz donorlik aksiyasida faol ishtirok etishdi.

Qon quyish markazi rahbarlari donorlik qilib, hayot uchun qon bergan ichki ishlar organlari xodimlariga minnatdorlik bildirishdi.

Osoyishtalik posbonlarining bu xayrli tashabbusi ko'plab bemorlarning hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

O'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



УКРЕПЛЯЯ КОМАНДНЫЙ ДУХ И СПЛОЧЕННОСТЬ

Общепедагогическая задача физической подготовки курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан – формирование гармонично развитой личности.

От крепкого здоровья курсантов в конечном итоге зависит успешность их будущей профессиональной деятельности, направленной на охрану и защиту прав граждан, обеспечение общественной безопасности и порядка.

Задачи по физическому воспитанию курсантов образовательных учреждений МВД решаются с учетом определенных принципов. Прежде всего это совершенствование психофизических качеств – силы, ловкости, выносливости, привитие потребности ежедневных физических уси-

лий. При этом важнейшим аспектом педагогического процесса является не только повышение уровня физической подготовленности курсантов, но и их нравственное развитие.

Физическая подготовка призвана вовлекать курсантов в командную деятельность, создавать такие условия, при которых укрепляется дух сплоченности, товарищества и взаимовыручки. Данная система воспитания – определяющая, опирается на систему морально-психологической подготовки, а также базовые ценностные ориентиры



сотрудников органов внутренних дел. В структуре педагогического процесса она выступает важнейшим ресурсом воспитания стойких, сознательных, отличающихся высокими моральными качествами сотрудников.

Алишер УСМАНОВ,
полковник.

✓ Лучший книголюб

КНИГА – УЧИТЕЛЬ, КОТОРЫЙ ТВОРИТ НАШУ ЖИЗНЬ

В системе органов внутренних дел большое внимание уделяется повышению читательской культуры сотрудников. В подразделениях регулярно проводятся встречи с писателями и поэтами, деятелями культуры, посвященные лучшим произведениям отечественной и мировой литературы, книжные ярмарки. Растет количество участников смотроконкурса книголюбів «Зукко китобхон», интеллектуальной игры «Заковат».



Инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД Ромитанского района лейтенант Малик Гуломов увлеченно читает книги. Среди коллег он признанный знаток классической и современной узбекской литературы, произведений зарубежной прозы и поэзии.

Малик Гуломов выпускник Академии МВД Республики Узбекистан. Вот уже как два года он образцово служит инспектором профилактики, обеспечивая спокойствие и правопорядок на территории махаллинского схода граждан «Кургон».

Еще в период обучения в Академии Малик результативно участвовал в читательских конференциях. Нынешнее его участие в смотроконкурсах также успешно.

На областном этапе конкурса «Зукко китобхон – 2022» лейтенант М. Гуломов был удостоен первого места. По итогам республиканского этапа, проходившего в Андижанской области, награжден специальным сертификатом МВД.

Команда под руководством М. Гуломова на областном этапе интеллектуальной игры «Заковат – 2023» стала лидером и завоевала путевку на республиканский этап.

– Любовь к книгам мне привили родители, с детства читаю с огромным интересом. Всякий раз, когда есть свободная минута, беру в руки книгу, – говорит герой очерка. – В числе произведений, которые перечитываю вновь и вновь, – «Бабурнаме»

Мухаммада Бабура, трилогия «Горизонт» Саида Ахмада, романы «Шайтанат» Тахира Малика, «Чинара» Аскада Мухтара... Рекомендую всем к прочтению произведение Ульмаса Умарбекова «Трудно быть человеком», повествующее о достоинстве, чувствах юных сердец, стойкости перед ударами судьбы, чести.

У лейтенанта М. Гуломова много планов на будущее. Он намеревается серьезно заняться научно-исследовательской деятельностью в области правоприменения. А еще в период летних каникул хочет провести среди школьников конкурсы «Зукко китобхон» и «Заковат». Пожелаем же ему удачи в добрых начинаниях.

Мирзокул АХАДОВ,
корреспондент
«Postda».

Бухарская область.

ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 12 по 18 июня)



Овен. На этой неделе будете вести своих подопечных к новым победам. Ваша решимость и твердость характера будут бесценными. Но помните, что даже самому отважному лидеру нужно время для восстановления сил. Уделите время полноценному отдыху.



Телец. Неделя может подарить крупные победы. Кто-то достигнет небывалых успехов, кто-то существенно продвинется в карьере или в бизнесе. Достигнув конкретной цели, позвольте себе немного расслабиться. Предвидится мероприятие, предполагающее определенные расходы, но способное принести заряд позитива.



Близнецы. Ни крупных проблем, ни поводов для восторга на неделе не предвидится. Жизнь будет идти неспешно, своим чередом. Вам не следует умышленно менять заданный темп происходящих событий. Любые инициированные перемены, скорее всего, не принесут позитивного результата.



Рак. Целесообразно бросить силы на достижение карьерного роста. Старательно работайте и не пренебрегайте никакими поручениями. Многим представителям знака такой подход к делу поможет получить повышение в должности. Правда, после этого не исключены зависть и козни со стороны некоторых коллег.



Лев. Львам нельзя действовать на грани фола. Даже если некая авантюра сулит решение сразу нескольких задач, не стоит ее начинать. Самый тщательный просчет рисков вам сейчас вряд ли поможет, потому что буквально в последний момент появятся обстоятельства, которые все изменят не в вашу пользу.



Дева. Не стоит давать деньги в долг. Есть риск, что именно этой суммы вам не хватит для воплощения заветной мечты, связанной с какой-то покупкой. Во всем остальном удачное стечение обстоятельств поможет довольно просто разобраться с проблемами, разрешать возникающие вопросы.



Весы. Можете испытывать напряжение в отношениях с людьми. И не по своей вине. Многие захотят встать на пути, противодействовать вашему плану. Единственный способ избежать этого – ни с кем этими планами не делиться. Но при этом не упустите случая оказать помощь человеку, оказавшемуся в беде.



Скорпион. Скорпионы могут смело рассчитывать на помощь окружающих. Она будет приходиться от старых друзей, верных коллег, от недавних знакомых. Не пренебрегайте этим, иначе будет трудно справиться с множеством проблем, которые грозят на вас свалиться.



Стрелец. На этой неделе увидите новую цель, ради которой даже можно решиться отказаться от прежних планов и амбиций. Но прежде внимательнее присмотритесь к своему окружению. В нем есть люди, с которыми следует вести себя осторожнее, а то и вовсе прекратить с общением.



Козерог. Повышается энергетический потенциал, растет уверенность в себе. Однако в делах будет много неразберихи, из-за чего стабильности ждать пока не приходится. Ко всему, те, у кого есть трения в личной жизни, могут вновь вступить в конфликт со своей половинкой.



Водолей. Можно позволить себе немного расслабиться на работе. Воспользуйтесь этим и займитесь личными делами. Давно зревшие проблемы со старшими родственниками и с детьми именно сейчас могут встать в полный рост.



Рыбы. На работе не встретите практически никаких препятствий. Однако успех будет приходиться постепенно, поэтому сразу поразить окружающих выдающимися достижениями не удастся. Гораздо важнее сейчас сохранить позиции и влияние в коллективе. В личных делах вероятны ссоры, обиды.

**Xizmatdan tashqarida****«ZO‘R-ZO‘R»NING TOMOSHASI ZO‘R BO‘LDI**

Inson qalban doim go‘zallikka intilib keladi. Har bir inson o‘z iqtidorini namoyon etishga harakat qiladi. San‘at buning uchun ajoyib vosita. Hayotda mashaqqatli kasbni tanlab, san‘atdan ajralmagan ichki ishlar organlari xodimlari orasida ham shunday iqtidorlar ko‘plab topiladi.



Sirdaryo viloyati IIB qoshida tuman-shahar ichki ishlar organlari xodimlarining iqtidorli yoshlaridan iborat «Zo‘r-zo‘r» musiqiy-havaskorlik jamoasi tashkil etildi.

– Musiqa va san‘atga qiziquvchi xodimlarni yagona guruhga birlashtirishni anchadan buyon rejalashtirib kelayotgandik, – deydi viloyat IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik Qahramon Shermatov. – Re-

jamiz ichki ishlar organlarida o‘tkazilgan «Ma‘naviyat oyli» doirasida amalga oshdi. Tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘n besh chog‘li yoshlarni yagona guruhga birlashtirdik. Ular o‘z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berdik. Guruh a‘zolari xizmatdan bo‘sh vaqtlarida haftaning belgilangan kunlari yig‘ilib, repitisiya olib borishi uchun musiqiy asboblarni, kostyum-



lar, sahna bezaklari, maxsus effektlar uchun chiroqlar bilan ta‘minlandi. Viloyat Musiqali drama teatrining mutaxassis-lari ularga murabbiylik qilishdi. Bir necha oylik tayyorgarlikdan so‘ng nihoyat ilk konsert dasturi sahna yuzini ko‘rdi.

– Konsert dasturimizdan Vatandarparvarlik, ona Vatanni

...Musiqali drama teatrining muhtasham sahnasida chiroqlar yonadi. Parda ochiladi. Birin-ketin namoyish etilayotgan sahna ko‘rinishlari, kuy-qo‘shiqlar qalblarni junbishga keltiradi. Farqli jihati — rollarni professional san‘atkorlar emas, balki ichki ishlar organlari xodimlari ijro etishdi.



madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari joy oldi, – deydi guruh a‘zosi, Boyovut tumani IIB HPB XQMB katta inspektori, leytenant Surayyo Po‘latova. — Chiqishlarimiz tomoshabinlarga manzur bo‘lishi uchun ancha ter to‘kdik.

Ularni haqiqiy san‘atkorlardan ajratish qiyin. Xodimlar o‘z mahorat va iste‘dodi tufayli shu darajaga erishishdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
«Postda» muxbiri.

Sirdaryo viloyati.

**Xushxabar****LITSEY O‘QUVCHILARI G‘OLIBLAR SAFIDA**

Jizzax viloyatida bo‘lib o‘tgan «Yosh qutqaruvchi» musobaqasining respublika bosqichida IIV Surxondaryo akademik litseyining «Lochin» jamoasi munosib ishtirok etdi.

Litsey jamoasi musobaqaning estafeta va yuqori qavatlarida ishlash shartlarida g‘olib chiqdi. Natijada jamoa respublikamizning barcha viloyatlaridan tashrif buyurgan 14 ta jamoa orasida faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi.

Termiz temiryo‘l vokzalida akademik litsey o‘quvchilaridan iborat jamoa a‘zolari tantanali ravishda kutib olindi. Kutib olish jarayonida so‘z olganlar ularni tabriklab, kelgusidagi o‘qishlarida muvaffaqiyatlar tilashdi.

O‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas‘ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV,
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

kapitan
Mixli SAFAROV
Georgiy PETROSYAN

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g‘aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosil-
ganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyat-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonaning manzili:
Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro‘yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5506.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50942 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko‘chasi 9-uy.